

74  
7-96

РИСБОЙ ЖУРАЕВ, АСКАР ЗУННУНОВ

# ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВ ФАНЛАРИНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ



1  
44-96

Книга должна быть  
возвращена не позже  
указанного здесь срока

Количество предыдущих  
выдач

4. 11. 295  
16.06.2022.

TA'LIM JARAYONIDA  
O'QUV FANLARINI  
INTEGRATSIV ALASHTIRISH  
OMILLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablari  
uchun qo'llanma

000 «Toshkentsha goradska tishomtrajerasi» Zax. 407-4000

Оқоледж

0801

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIQI  
TOSHKENT VILYOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIQI  
TOSHKENT VILYOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHРИRİYATI  
TOSHKENT – 2005

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
FAN VA TEKNOLOGIYALAR MARKAZI  
T. N. QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA  
FANLARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

## T a q r i z ch i l a r

U. MAHKAMOV – pedagogika fanlari doktori, professor  
E. T. TURDIQULOV – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sh. QOSIMOVA – Toshkent shahar 20-maktab direktori,  
M. ISMATOVA – Yunusobod tumani 273-maktab direktori,  
O'zbekiston Qahramoni

## SO'ZBOSHI

Mustaqil Respublikamizda tarbiya mazmuni, shakli tubdan o'zgardi, tarbiyaviy ishlar aniq maqsad tomon yo'naltirildi, bu jarayonda subyektlarning o'zaro samarali hamkorlikda bo'lishlari uchun uzviylikda bo'lgan tarbiya shakli, vosita va usullari ishlab chiqildi, amaliyotga tafbiq etilmoqda. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs qilib yetishtirishda milliy madaniyat, ma'naviyat, ilg'or milliy an'ana, urf-odat va umumbashariy qadriyatlар asos bo'ldi. «...Biz, — deydi Prezident Islom Karimov, — umumbashariy qadriyat-larning eng birinchi asosi bo'lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadam-baqadam bahramand bo'limoqdamiz. Ayni shu hol taraqqiyot yo'jidan dadil borishimiz va butun insoniyat bilan birgaligimizning eng mustahkam kafolatidir»<sup>1</sup>.

Demak, o'quvchilarni barkamol inson qilib yetishtirishga, ularning xalq insonparvarligi chashmalaridan, umumbashariy qadriyatlardan bahramand bo'lishlariga e'tibor berish lozim. Bunda ma'naviyatdan «... oqilonqa foydalananish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalqsevarlikka o'rgatish kerak bo'лади. Aslini oganda, axloq — ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik xush muomaladangina iborat emas. Axloq — bu avvalo insof va addolat tuyg'usi, iyemon, halollik deganidir.

Bu ko'rsatmalar, tabiiyki, ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash yo'llarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, integratsiya — bu, ayrim bo'lak, qism-larning birlashib, bir butun bo'lishidir. Ta'lim jarayoni da o'quv fanlarini integratsiyalashda asosiy masala vaz-

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lli. T.: «O'zbekiston», 1992. 70-bet.

<sup>2</sup> I. A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-jitmiy va iqtisodiy istiqbolining tamoyillari. T.: «O'zbekiston», 1995. 53-bet.

falarning o'zaro bifigini ta'minlashda, awalo, maqsad metod, shakl, vositalar va kuzatilgan natijalarini belgilab olishdir.

Ana shu qonun, qoidalarga amal qilgan holda qo'llanmada ijtimoiy fanlarning o'zaro uyg'unligi, ta'lim va tarbiya birligiga e'tibor berib, badly adabiyot va tarix fanlari namoyandalarining asarlarida ifodalangan obraz va tarixiy siymolarga xos insoniy-axloqiy fazilkarni integratsiyalab birlashtirib, ular shu fazilatlar sohibi bo'lgani sababli hikmatlar ham taqdirm etildi.

O'yaymizki, muhtaram kasbdoshlarimiz qo'llanmada bayon etilgan fikrlarga ijodiy yondoshadilar, u haqda samimiy istaklari bilan uning takomillashuviga ko'maklashadilar.

#### I. TA'LIM JARAYONIDA O'QUV FANLARINI INTEGRATSIVALASHNING ILMY- PEDAGOGIK ASOSLARI

Prezident Islom Karimov o'zining «O'zbekiston buyuk kelajak sari» asarida istiqlol mafkursasi «Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan»ini qayd qilib, «milliy mustaqillik mafkursasi umuminsoniy qadriyattar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlikni,adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim. U davlat fuqarolarining buyuk maqsad yo'ilida ma'naviy yaqinlashuviga ko'maklash-mog'i kerak» ligini qayd etdi.

«Markaziy Osyo hamkorligi» tashkiloti (MOH) davlat rahbarlarining 2004-yil 28-may kunida bo'lgan kengashda Markaziy Osyo mamlakatlarida hamkorlik va integratsiya uchun asos va imkoniyatlar juda ko'pligi, xalqlarimizning bir-biringa yaqinligi savdo, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-tehnikaviy, madaniy-ma'rifiy aloqalarni taraqqiy ettirish uchun muhim zamin bo'lishi ta'kidlandi.

Hozirgi davrda o'quv fanlarini integratsiyalash mazmuni, rivojlanish tarixini, fanlarni integratsiyalashning shakli usul va vositalarini aniqlash, uning kelajak istiqbolini belgilash-asosiy vazifa bo'lib turibdi.

Ma'lumki, «Fan» so'zi lotincha «bilim» demakdir. Shu ma'noda fan, o'mishda ham, hozirda ham, bir tizimga solingan bilimlar birligi deb tushuniladi. Fan — ma'naviy madaniyatning muhim bir bo'lagi (qismi), insoniyatning eng yuqori shakli, ma'qul metod-

<sup>1</sup> Istom Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sati. T.: «O'zbekiston», 1998, 311-bet.

lar vositasida erishilgan, aniq bayon qilingan, haqiqiyligi ijtimoiy soha tajribasida isbotlangan bilmlar tizimi hisoblanadi. Demak, integratsiya, bu — ayrim bo'lak-larning qo'shilib bir butun bo'lishidir.

O'quv fanlarini integratsiyalash, bu — turli o'quv fanlarini sun'iy ravishda bir-biri bilan birlashtirshi degan gap emas. Ularni o'zaro uyg'unlik, uzviylikni o'rganish fanlar o'rjasidagi umumiy o'xshashlikni, har biriga xos xususiyatni va har birini hayotga tabbiq etish usullarini puxta, aniq bilib olgan taqdirdagina samarali bo'lad. Shundagina o'quvchilarida ilmiy dunyoqorash shakllanadi, ular mehnat jarayonida, ijtimoiy hayot, tabiatda sodir bo'layotgan voqealarni hodisalar o'rjasidagi uyg'unlik, uzviylikni chhuqur anglab oladiar.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ham, «Kadrlar tay-yorlash milliy dasturi»da ham o'quv fanlarini uzviylikda, izchillikda o'rganish aniq ifodalangan.

Ta'limni integratsiyalashtirish o'quvchilarida jo'shqinlik, fanlarni o'rganishga qiziqish hissini kuchhaytradi, o'quv fanlari bo'yicha bilim darajasini oshiradi, ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o'quv materiallарining o'zaro, tabiiy ravishda uzviylikda bo'lishini ta'minlaydi. Darsda o'quvchilarida ongli qiziqish faoliyati, mustaqil fikrلash qobiliyati rivoj topadi; ularda o'quv faniga nisbatan shaxsiy munosabatda bo'lish, ijodkorlik hissi shakllanadi. Integratsiya-lashtirilgan darsda ta'lim-tarbiya uzviyligi ham bir butun holda amalga oshadi. O'quv fanlarni uzviylikda o'rganish o'quvchilar bilimini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida o'quv tarbiya jarayonining ham uyg'unlikda bo'lishini taqozo etadi.

Islom Karimovning ta'kidlashicha: «Yurtiga, vattani-ga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azally xususiyatlardir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab, avaylash, va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarmizning asosiy yo'naliishini tashkil etmog'i kerak. Shunga ko'ra, vatan

tarixi va madaniyatini, jug'rofivasi va iqtisodini, qadimiy urf-odatlarni har tononlama o'rganish dolzarb ahamiyatga ega»!

Hozirgi mustaqillik davrida istiqlol mafkurasi ma'naviy hayot va jamiyatdagi yangicha munosabatlar mo'hiyatini anglash, ularning yechimini topish, tahli qilish va to'g'ri yo'lni tanlash qobiliyatiga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Komil insonning ma'naviy hayotni yaxlit holda ko'ra olishi, hayotda sodir bo'layotgan voqealarni tasavvur etishi, uning mohiyatini tushuna biishi lozim. Tarbiyaviy ishning asosiy g'oyasi esa, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, militly iftixor, iymon-c'tiqodlik, axloqiy poklik, odilik, bilimlik, onglik, birodarlik, bayalmannallik g'oyalardan iborat.

Ya'ni, ta'lim jarayonida shaxs sifatida shakllanayot-gan o'quvchilar ma'naviyat, insonparvarlik, vatanpar-varlik axloq-odob tushunchalarining mazmuni va tar-kibini bilib olishlari kerak. Shundagina ular bu tushun-chalarning mohiyatini puxta anglab, bu ulug' fazilatlarni egallashga ongli ravishda harakat qiladilar.

Akademik I.P.Pavlov ta'kidlaganidek, ta'lim — aloqa, fikr, tafakkur va bilimlardan iborat.

Fanlar o'rjasidagi o'zaro uzviylik tabiat va jamiyat voqealari o'rjasidagi mayjud uzviylikning obyektiiv in'ikosidir. Binobarin, o'zaro uzviylik tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarga xos umumiy va muhim xususiyat sanaladi. Har bir narsa, voqeaming mohiyatini bilish uning boshqa narsa va hodisalar bilan bo'lgan munosabatini bilishga bog'liq.

O'quv fanlararo uzviylikka xos xususiyat awvalo, darsda kuzatilgan maqsad va vazifalarga qarab belgilanadi. Ularning o'zaro uzviyligidan muvaffaqiyat esa, darsning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq.

Bu jarayonda insonning ilmiylik xususiyatiga ega bo'lgan mehnati alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, mehnat — insoniyat hayotining, uning o'sib, kamol topishi va go'zallik his-tuyg'usining, erishgan moddiy va ma'naviy boyliklarining asosiy manbayidir.

O'tmishda ota-onalar bolani aqli kamol topgan, har bir ishga ijodiy yondashish qobiliyatiga ega bo'igan inson qilib yetishtirish zarurligini o'z tajribalarida ko'rdilar, mehnat va ijtimoiy hayot, tashqi olam inson kamolotida asosiy omil ekanligiga ishonch hosil qildilar. Dunyoga kelgan bolaning aqliy tarbiyasiga urg'u berган holda, ularni oila va qishloq xo'jalik ishlari, bog'lar yaratish, chorvachilik, hunarmandchilik ishlari ga — mehnatga o'regtidilar, shu bilan birga, o'yning, jismoniy tarbiyaga, bolalarning boshqalar bilan muloqotda bo'iishiga, ularda atrof-muhitni anglashga qiziqish uyg'otishga ahamiyat berdilar.

Yoshlikdan o'sib borgan sayin bolalarda aql, xotira, ko'p narsani bilishga havas, fikrni bir nuqtaga qaratish, mantiqiy fikrlesh, ijodkorlik qobiliyatni rivojlanma boshlaydi. Bola tug'ilishi bilanoq ota-onaning parvarishi orqali atrof-muhit bilan tanishadi. Turmush faoliyati boshlanishi bilan ishlab chiqarish tajriba va malakalarini o'zlashtiradi, shu jarayonda unda madaniyat, axloq va estetik qarashlar shakllanadi.

Har bir xalq, elat, jumladan, o'zbek xalqi o'ziga xos axloq qonun-qoidalarni yaratdi. Insoniylik mezonini axloq qonuniyatining asosi bo'lib qoldi.

Aqliy tarbiya insomning sharaflı, g'ayratli, irodali bo'lishida muhim omil bo'idi. Tarbiyada asosiy ustoz oilada ota-onsa, keksalar bo'iishi.

Xalq yaratgan madaniy boyliklar, yodgorliklar yoshlar tarbiyasidagi muhim vosita bo'lib, ularda ifodalangan g'oya va ilg'or tajribalar pedagog olimlar, buyuk mutafakkirlarning bola tarbiyasi haqida bayon etgan fikrlari uchun muhim manbadir. Chunonchi Ismoil al-Buxoriy, Al-Xorizmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa alloma-lar o'z asarlarida axloq, odob, natosat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalarni bayon etishda pedagogikadan samarali foydalandilar. Bu ulug' mutafakkirlarning asarlarini o'qigan har bir o'quvchi axloq, baxt, inson, poklik, iffat, sabr-matonat,

mehr-shafqat, sihat-salomtalik, ota-onaga hurmat qoidalari haqida boy tasavvurga ega bo'ldi.

Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) o'zining «Insoniy ishlarni tuzatish haqida unumiy maslahatlar» nomidagi asarida tarbiya tabiatga uyg'un bo'lishi, tarbiyada «bolani hamma narsaga o'regatish», tabiat ko'rsatmalariiga assoslanish, bolalarning shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini aytadi. Komenskiy tabiat hodisalarini va inson faoliyatiga doir misollarga murojaat qiladi. Masalan, u o'qitishni narsa, buyum bilan umumiy tanishtirishdan, bolalarning uni yaxlit idrok qilishlaridan boshlab, undan keyin uning ayrim tomonlarini o'rganishga o'tish zarurligini aytadi. Komenskiyning ta'kidlashicha, tabiat hamma narsani eng umumiy narsadan boshlaydi va xususiy narsa bilan tugatadi. Jumladan, tuxundan qushning yuzaga kelishida uning umumiy shakllari paydo bo'лади va keyinchalik, asta-sekin ayrim a'zolari rivojlanadi. Komenskiyning so'zlariga ko'ra, rassom ham shu zaylda ish ko'radi. U avval tasvir-laydigan buyumning umumiy, xomaki rasmini chizadi, keyin uning ayrim qismilarini tasvirlaydi.

Komeneskiyning fikricha, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosiga qurilgan ta'limgina tabiatga uyg'un bo'лади.

U ta'larning tabiatga uyg'unligi haqida fikr yuritar ekan, inson rivojlanishini to'rt bosqichga — go'daklik, botolik, o'smirlik, yetuklik davlariga bo'лади.

Komeneskiy yosh avlodga har tomonlama tarbiya berishni ta'minlaydigan, hamma bosqichlarda izchilik va o'zaro bog'lanish bo'ладиган qat'iy va yagona tizim qaror topishi kerakligini aytadi va hamma bosqichlar uchun ta'larning mazmunini batafsil ishlab chiqadi. U har bir fanning o'qitilishini eng oddiy elementlardan boshlash kerak, bolalarning bilimi bosqichdan bosqichga o'tgan sayin yangi ildiz otib va novda chiqarib, tobora mustahkamlanib, o'sib borayotgan va ko'p hosil berayotgan daraxt singari kengayib, chuqurlashib borishi lozimligini ta'kidlaydi.

Jan Jak Russo tarbiyani tabiatga uyg'un holda amalga oshirishni — bolaning tabiiy rivojlanib borishiga ri-oya qilish kerak, deb hisoblaydi.

O'tmish asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoyi kabi buyuk allomalar yunon, yaqin va o'rtta sharq o'lk'a xalqlari ilm-fani, madaniyati, ma'rifatini yaxshi bilganlar, olim va adabiyot namoyon-dalari bilan bevosita mulqotda bo'lganlar.

Abu Nasr Forobiy Yunonistonning jahonga mashhurlarini o'rgangan, ilmiy va pedagogik qarashlarini chuqur tadqiq etgan, ularga sharhlar yozgan, Aristotelining «Kategoriyalarga sharhlar» risolasini izohlagan.

Forobiyning insoniy fazilatlari haqidagi umumiy ta'lomitiga ko'ra, inson o'z mohiyati bilan ijtimoiydir, ya'ni jamiyatda, o'zaro munosabat, o'zaro jarayonda in-son bo'lib yetishadi. Jamiyat insonlarning o'zaro birikuvi yordamida — insonning o'z moddiy ehtiyojolarni qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga keladi va jamiyatdan tashqarida insonlar jamoasidan ajralgan hol-da, yordamsiz o'z ehtiyojolarni qondira olmaydi.

Insonni boshqa hayvonlardan ustun qilgan narsa uning uchun tabiiy hisoblanuvchi aql va ruhiy quvvatdir, kutilgan maqsadlarga erishuv uchun tug'ma kasb hunarni, turli ishlarni egallamoq darkor.

Inson o'zining barcha tug'ma qobiliyatlarni yuksak kamolotga erishuv, yetuk bo'lishi, mukammallikka erishuv uchun sarf qiladi va bu yo'lda o'zi kurashgan tabi-at hodisalaridan foydalananadi, ularni o'ziga bo'yusundiradi, buning uchun ilm-fanni, turli hunarlarni o'rganadi.

Insonning tabiat hodisalaridan foydalananishi, ilm-fan, kasb-hunarni o'rganishi, kamolotga erishuvining yo'l-yo'riq va vositalarini to'g'ri tushunishi va o'zining tug'ma qobiliyatlardan to'g'ri foydalanshi, boshqalar bilan munosabatda, muloqotda bo'luvi uchun ta'lim-tarbiya niroyatda zarur.

Ibn Sino o'zining «Donishnomma» asarida havo, olov, suv, tuproq bo'laklarga bo'lilmaydigan modda ekanligini aytadi. Ularning o'zaro turlicha birikivi natijasida murakkab moddiy narsalar hosil bo'jadi. Bu murakkab narsalar o'zgarib, turli shakllarga ega bo'lishi mumkin. Kishi ongidan tashqarida va unga bog'iqliq bo'limgan holda mavjud bo'igan obyektiw borliq, harakat, vaqt, fa-

zo bilan uzviy bog'iqliq, obyektiv muddasiz fazo va harakat yo'q.

Inson bilimi tashqi olamdag'i mavjud narsalarni hissiy bilish, tushunchalar yordamida hosil bo'lgan fikr-lash natijasida tashkil topadi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish bilan boyib, rivojlanib boradi. Inson aqli tashqi olam haqida tushunchalar hosil qilishga, bilimlar ortirishga qodir.

Munawvar qori Abdurashidxonov bolalar tarbiyasida ota-onha, o'qituvchi, keng jamaoa o'ttasida hamkorlik bo'lishi kerakligini aytadi. Bolada ma'naviy go'zallik, nafosat, ijodkorlik his-tuyg'ulari uzviylikda rivojlantiril-mog'i lozim.

Hamza Hakimzoda axloqiy tarbiyada bolalar tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini, tabiiy hodisalarini, ularning o'zaro uzviyligini bilishi kerakligi, shundagina ular jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan bo'lib yetishishlari mumkinligi haqida fikr bildiradi.

Ma'lumki, ilmlarni o'zlashtirish jarayoni ma'lumotni his qilish, anglash, bilish va malaka hosil qilish jarayonlardan iboratdir.

Inson mehnatining asosiy xususiyatlardan biri — uning fikr yuritish, ijod qilishga moyil va qodirligidir. Inson buyum — narsa yaratish ekan, u, avalambor, o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojni qondiradi, yaratgan narsasi o'zining tashqi ko'rinishi va go'zalligi bilan boshqalar diqqat e'tiborini o'ziga jaib etib, ularning ham moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Har bir ilm, san'at ahli, hunarmand, kasb ahli jamiyat takablarini hisobga olgan holda asar ijod qiladi, biror narsa yaratadi. Asar, buyum yaratishdan oldin olim, san'at va kasb-hunar ahli ongida bilim, voqe'a va qanramon haqida fikr, o'ylar tizimi shakllanadi, so'ngra shu tizim asosida izchillikda asar bunyod etiladi. Maktabda o'qituvchi ongida ham mavzu bo'yicha darsda beradigan ma'lumotlari, qo'llaydigan usullari, foy-dalanadigan ko'rgazma vositalari tizimi shakllanadi, so'ngra u, mantiqiy izchillikda va aniq dalillar asosida o'quvchilarga bilim beradi, ularni tarbiyalaydi, shu zaylda ta'lim-tarbiyani bir butunlikda amaga oshiradi.

Hozirgi davrda fan tizimini tashkil etgan qismalarning ham o'zaro aloqada bo'lishiда ilmy-texnik axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar rivojining ta'siri va bu sohada axborot vositalarining muhim ahamiyat kasb etishi nati-jasida erishilayotgan yutuqlar tabiat, jamiyat, texnika sohasi – moddiy olanda namoyon bo'lmoqda. Bu o'zaro ta'sir – fanlar rivoji, har bir fanning ichki tabiiy rivoji uchun zarus bo'lgan ehtiyoj, har bir fan rivojiga xos xususiyatdir.

Ilmiy tarzdagi o'zaro ta'sirga ega bu xususiyat shundan iboratki, u fan bilan axborot vositalri o'rtasidagi aloqani kuchaytiradi, tezlashtiradi. Bu tezlashish esa, fanning ijtimoiy tuzumga bo'lgan ta'sirini oshiradi.

Fanlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va fanlar tarkibidagi o'ziga xos qonuniyatlarning yuzaga kelishi ularning tuzum bilan aloqadortligiga yorqin daildir.

## II. TA'LIM JARAYONIDA O'QUV FANLARINI INTEGRATSIYALASHTIRISH

Ta'lim-tarbiya ong yetukligini ta'minlashda muhim o'rinda turadi. Iqisodiyot, madaniyat, ijtimoiy va ma'naviy hayotimizning taraqqiyot omillarini belgilashga qaysi jihatdan yondashmaylik, inson va uning vatandasligi, fuqaroligi, faoliagi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Bunday insomni maktab shakllantiradi.

Maktab jamiyatning talabalariga bo'y sunuvchi va uning ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun javobgar bo'lgan muhim bo'g'in hisoblanadi, insomni shakllan-trish uchun mas'uldir.

Ma'lumki, shaxs bir butun shaklda rivojlanadi. Bir butun ta'lim-tarbiya jarayoniga xos vazifa insonda mafqaqt aqliy, balki layoqat va malakan ham shakllantiradi. Bir butunlikda bo'lgan jarayon o'quvchida qiziqish hissini tarkib topiradi. Demokratik, insonparvarlik xususiyatini kasb etgan ta'lim-tarbiya ijodiy hamkorlik va muloqotga asoslanadi, o'quvchida ichdan intilish, qiziqish hissini uyg'otadi, o'quvchi shaxsini bir butun holda rivojlaniradi, aqliy va jismoniy qobiliyatini takomillashtiradi.

Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash, bu yangi jamiyatni barpo etishda belgilangan uzoq mudatlari strategik maqsaddir. Har bir tarixiy bosqichda bu maqsadga erishishdagi vazifalar jamiyat talab qilayotgan vazifalardan biri sifatida belgilanadi.

Bu vazifalar quyidagilardan iborat: Shaxsga qo'yiladigan tarixiy talablar «yangilik uchun kurashish, taraqqiyatparvar, ijtimoiy adolat tarafdori, vatanparvar va baynalminal, tom ma'nodagi jamoatchi, vattani va insoniyat erishgan yutuqlarni qadrlovchi jamiyat ishi uchun qayg'uruvchi fidokor, madaniyatlari va keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs»ni yetishtirishdir.

Har tomonlama barkamol inson deganda biz jamiyatning asosiy qadriyatlарини o'zlashtirish va yanada ko'paytirish yo'llida yuqori darajadagi faoliyekni namoyon qiluvchi shaxsni tushunamiz. Shaxsning hayoti mazmu ni uning ilg'or kishilar faoliyatini o'rganishga intiisharda aniq namoyon bo'ldi.

Shaxsni shakllantirishdagi vazifalarning o'zaro birligini ta'minlashda, avvalo, maqsad, vosita va kuzatilgan natijalarning birligi ham nazarda tutiladi.

Birlik, bu o'quvchchi va o'quvchi faoliyati, qo'llaniladigan uslub vosita, vazifalarga nisbatan o'quvchi munosabati, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasining o'zaro aloqasi birligidir.

Adabiyot hayot hodisalarini aks ettiradi. Tarix va hozirgi zamон, odamlarning mehnati va maishati, fan, texnika, san'at masalalari unda o'zining badiiy aksini topadi. U inson hayotining turli sohalarini o'z ichiga oladi, insonning fikr va tuyg'ulariga kirib boradi, uning eng murakkab, eng nozik kechimnalarni aks ettiradi. Yozuvchi nima haqda hikoya qilmasin, uni qiziqitrgan asosiy narsa odamdir. Uni odamlarning mehnat bilan shug'ullanishi, turli hodisalarining odamlarga, ularning xatti-harakatiga, ongi, hayoti va taqdiriga ta'siri qiziqitradi. Asarda bir odam obrazida uning boshqa kishilar bilan birligi shaxsiy hayotdagi faqat o'ziga xos xususiyatlari tasvirlanadi.

Badiiy adabiyotda tabiat ham tasvirlanadi. Tabiat manzarasi shunchaki tasvirlanmaysdi. U kishining idroki orqali beriladi va shu bilan u kishining tuyg'u, fikr, kay-

fiyatini va uning hayotga munosabatini tushunishga yordam beradi.

Badiiy adabiyot so'z san'atidir. Yozuvchining o'ylanlari badiy asarga aylanishi uchun obrazlarga til libosi «kiygizish» kerakli so'zlarini topish, tegishli ohang berishiga erishish, ularning yordami bilan muayyan ma'no hosil qilish, kayifiyat yaratish kerak. So'zning yordami bilan adabiy obrazlar yaratiladi.

Maktabda dastur asosida Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida berilgan ma'lumotlardan keyin O'zbekistonning yirik sanoat viloyatlaridan biri «Navoiy» viloyati deb atalgani, Toshkentda «O'zbekiston milliy bog'i»da o'rnatilgan, haykaltaroshlik san'atining yorqin namunasi bo'lgan shoir haykalida buyuk allomanning nuroni siymosi mohirona aks ettiligani aytulishi kerak. Shuningdek, XVI asr naqqoshlik san'atining buyuk namoyandasi Kamoliddin Behzod chizgan rasmi namoyish etib, mazmunini so'zlab berish lozim. Ushbu «Navoiy portreti» allomada siymosi tuban-dagicha tasvirlangan. Alisher Navoiy hassaga suyangan, oldinga tomon biroz engashgan.

Vatandan yiroqda yurishlar, ilm-fan va adabiy ijod bilan timmsiz shug'ullanish, amirlik lavozimida davlat ishlarini boshqarish, adolat va tinchlik uchun kurash shoir qaddimi bukkan, sochlarni oqartirgan. Lekin dunyoning bu tashvishlari uning ruhini toliqtira olmagan Siliq, yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida tafakkur, ma'naviy qudrat va yengil bir horg'inlik jivilanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga mustahkam iroda ifoldinga tomon biroz engashgan.

Alisher Navoiy siyoshi chizilgan bu rasmda uning tafakkur kishisi, buyuk inson ekanligi umumlashma obrazlarda ifodalangan.

XX asr adabiyotining atoqli namoyandasi Oybek o'zining «Navoiy» romanida Alisher Navoiy siyemosini quyidagicha tasvirlagan:

«Shoirning boshida uchli ko'k taqiyaga silliq o'rallan ko'rkmagina salsa. Egnida — ichidan odmi shohi do'ppi, ustidan yalang qo'ng'ir movut chakmon... O'tizzdan oshmagan bo'sha ham, Navoiy yoshi

ulug'rocdek ko'rinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin pishiq, barmoqlari uzun va nafis, qora va qisqa soqli xushbichim miyqlari tekis va siliq, yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruvchi bir horg'inlik jivilanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda ifodalangan».

Rassom Behzod va badiiy so'z namoyondasi Oybek ifodalari bir-biriga uyg'un bo'llib, buyuk Alisher Navoiyning nuroni siymosini ko'z oldimizda namoyon etadi. Behzod chizgan rasm bilan Oybek chizgan so'z tasviri o'tasidagi mazmunan uyg'unlik bor.

IX sinifa «Alisher Navoiy» mavzuuni o'tishda bu ikki fan integratsiyalashtirilsa, o'quvchilar Alisher Navoiy buyuk tafakkur siymo bo'lgani haqida bir butun to'liq tasavvurga ega bo'ladilar.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Hiroda yashab, vazirlik vazifasini bajarib turgan yillarda mamlakat obodonligi, halq farovonligi va osoyish-taligi, ilm-fan, adabiyot va san'at, me'morchilikning rivojiga e'tibor berdi.

U shoh va shahzodalarining toj-taxt uchun kurashib, o'zaro urushishlari natijasida temuriylar davlatining haloktaga yuz tutayog'anini ko'rib, ularni yarashitirishga, kelishtirishga harakat qildi. Ammo uning bu harakatlari zoye ketdi, u o'z niyatlariga erisha olmadи, yurda tinchlik, osoyishitalik, farovonlik bo'lishi uchun hayotda insonparvarlik, xalqparvarlik, do'stlik, ma'rifatparvarlik fazilatlarini o'zida mujassam etgan, jasur inson-shaxs bo'ishi kerakligini chuqur his qildi. «Farhod va Shirin» dostonida aniq bir tizimda bosh qahramon Farhodni shunday inson — shaxs sifatida namoyon etdi.

Alisher Navoiy o'z ongida Farhod obrazida mujassam bo'ladigan insoniy fazilatlari o'zaro uyg'unlikda, manтиqiy izchilik va uzyiyilikda aks ettirish, mujassamdan o'tin oladigan, har bir fazilatni aniq voqeа-hodisalarni, uning amalga oshiradigan ishlari vositasida ko'rsatish tizimini o'yldi.

Darsda o'qituvchi Farhod obrazini tahlil qilishda bu

masalani quyidagi reja aosida yoritadi, integratsiyalashtiradi:

- Farhod bolalikdan aqli, zehnli bo'lib o'sadi;
- zo'r havas bilan o'qiydi;
- jismoni va harbiy mashqlar bilan shug'ullanadi;
- o'zini oddiy odamlardan biri deb hisoblaydi;
- me'morlik, naqqoshlik hunarlarini o'rganadi;
- toj-taxga qiziqmaydi;
- ilm, aql, iroda ijodkorlikka erishadi;
- Yunonistonga (Greitsiya) keta turib, yo'lida uchragan yovuz kuchlarni halok qiladi, Iskandar tilsimini ochadi, dengizda qaroqchilar bilan kurashib, yo'lovchilarni halokatdan qutqaradi.
- Armanistonda daryo misol ariq, katta hovuz qazishga boshchilik qiladi;
- do'stga, sevgilisiga sadoqatda bo'ladi;
- Armaniston xalqini Xisrav hujumidan himoya qiladi;
- o'limi oldidan tashvishga solgani uchun sevgilisi Shirindan, xalqdan, tabiatdan uzr so'rab, kelgisida yorug' kunlar bo'lishiha ishonch izhor etadi.
- Darsda bu reja bo'yicha Farhodga beriladigan ta'riflar quyidagi mazmunda bo'ladi.

Farhod yoshlirkdan — tabbiyot, matematika fanlarini qiziqish bilan o'qidi, aqliy tarbiya bilan birga, jismoni va harbiy mashqlar, jumladan, suvda suzish, chavandozlik bilan shug'ullanadi. 10 yoshida o'zining aql va jismoni kuch-qudrati bilan odamlarni hayratda qoldiradi. Shahzodalikka, otasining mol-dunyosiga qiziqmadi, o'zini oddiy kishilarning biri deb hisoblaydi, mazlum halqni chin qalbdan sevdi. U me'mor Boniydan me'morlikni, naqqoshlikni, tosh yo'nishni o'rgandi. U egalagan ilm va hunarini hayotga tatbiq etishni — ijodkorning burchi deb bildi, buni Armanistondagi faliyatida namoyon etdi:

«*Hunarни арабон нетгумdir oxir,  
Олиб тупроққами кетгумdir oxir»* —

deb tog'da ariq qazish uchun qiynalib ishlayotganlarga ko'maklashdi. U bilim va hunarini ishga solib, kishilar

mehnati va mashaqqatini yengillashtiradi. Uning boshchiligidida Armanistonda katta ariq, hovuz qazildi, ariqqa «Nahr ul hayot» («Hayot davrosi»), hovuzga «Baxr ul najots» («Najot dengizi») deb nom qo'yildi. Farhod Yunonistonga (Greitsiyaga) keta turib, yovuz kuchlarga qarshi kurashdi, misliz qahramonlik ko'satadi: og'zidan o't sachrab turgan ajdarmi, Ahraman nomli devni o'ldiradi, «temir odamlarni kurashda yengib», Iskandar tilsimini ochadi. Yolg'iz o'zi dengiz qaroqchilarini yengib, o'limni kutayotgan yo'lovchilarga yangidan hayot bag'ishlaydi, sevgilisining vataniga hujum qilgan Xisrav askarlarning boshiga tosh yog'diradi.

Farhod bu ishlarda o'ziga ko'makdosh bo'lgan boshqa elatga mansub Shopur bilan samimiy do'stlashadi. Chunki, Shopur Farhodni murod-maqсадига yetkariszisda fidoyilik ko'satadi, uni Yunonistonga olib boradi, tog'-toshlarni qazishda ko'maklashadi. U eng qiyin damlarini do'stga chin do'st bo'lishi, yordam berishni o'zining insoniy burchi deb biladi.

Xisrav bilan bo'lgan savol va javobda Farhod g'alaba qozonadi, Xisrav ma'naviy mag'lubiyatga uchraydi. Farhod donoligi bilan do'stining ham, dushmanning ham ko'nglida o'ziga nisbatan mehr uyg'otadi.

Farhod o'limi oldidan tong quishlari kabi mashriqqa (kun chiqishiga) murojaat qiladi, chiqib kelayotgan quyosh bilan so'zlashadi, osmondag'i oyga o'z dardini so'zlaydi. U tuni bilan Zuhra, Atrod (Merkuriy), Mushtariy (Yupiter), Zuhal (Saturn) kabi sayyorolarga, ko'k yulduzlariga xitoblar qiladi.

Shu ahvolda u hushidan ketadi. Erta tong unga motam tutadi, yoqasini choc etib, uning tobuti ustida osmon anjum durlarini sochadi. Hayvonlar Farhodning ifodalarda bu vafoli hayvonlarni vafosiz odamlardan yuqori qo'yadi.

Alisher Navoiy Farhodning har bir xatti-harakatini insontarga xos tarzda tasvirladi, uning ichki olamini odamlarga, tabiatga bo'lgan munosabati va muloqotida namoyon etadi. U bu obraz orqali o'zining eng yuksak

Dostonda Farhod hayotiga bog'liq bo'lgan har bir voqeanning bir-biridan kelib chiqishiga, ular o'ttasiagi mantiqiy bog'liqlik mustahkam bo'lishiga alohida ahamiyat berilgan.

Alisher Navoiy jamiyatda Farhoddek kishilarini ko'rishni istadi, orzu qildi va kelajakda u kabi kishilar yetishishiga ishondi. U Farhod va Shirin kabi ideal qahramonlar obrazini yaratish ekan, ularning oliv insoniy ideallar uchun yashashlariga va shu maqsadga erishishda sadoqatda ibrat bo'lib qolishlariga ham ishondi. Demak, insoniyat barqaror ekan, Farhod insoniylikni sharafllovchi shaxs namunasi bo'lib yashayveradi.

O'qituvchi Farhod obrazi haqida bergan bu ma'lumotini Prezident Islom Karimov o'z nutqlarida bugungi yoshlar Farhod kabi barkamol bo'lib yetishishlari kerakligi haqida aytgan so'zları, respublika viloyatlaridan biri «Navoiy» nomi bilan atalgani va bu yerda haykaltaroshlik san'atining yorqin namunasi bo'lgan «Farhod» haykali o'matilgani xususidagi ma'lumoti bilan to'ldiradi. Bu integratsiyalash o'quvchilarda Alisher Navoiyga nisbatan yanada hummat hissining ortishiga, Farhod obrazi ulug' shoirming barkamol shaxs haqidagi ideali ekanligini to'liq anglab olishlariga yordam beradi.

Alisher Navoyy sakkiz bayidan iborat bo'lgan «Qaro ko'zim» g'azalida sevimli yorga, odamiylik fanni ko'rsat, ko'zim qorasida mardum kabi – gavhar kabi vatan qil, deb murojaat qiladi. Navoiy yorni faqat ko'rib turishni emas, ko'z qorachig'iga jo qilmoqni istaydi va qaysi tomonga boqmasin oygami, gulgami, shabnamangi yorning timsolini ko'rishni orzu qiladi, o'z orzularini sakiz baytda bir butun holda bayon etadi:

*Qaro ko'zim, kelu mardumlig' emdi san qilg'il,  
Ko'zim qarosida mardum kibi vatan qilg'il.*

Sevimli yor oshiq ko'zining qorachig'ida vatan qilib olsa, bu uning uchun quvonch bo'ladi, ko'ngli bog' ravzaga aylanadi.

*Yuzing guliga ko'ngil ravzasin yasa gulshan,  
Qadding niholiga jon gulshanin chaman qilg'il.*

Bu baytda oshiq ko'zlarimda gavhar bo'lib, joylash-ganing baxtidan bog' bo'lgan ko'nglim yuzing gulsha, jonli qadding niholiga chaman bo'lsin, deydi. Bu oshiqning yorga bo'lgan muhabbati izhoridir.

*Taqovaringga bag'ir qonidan xino bog'la,  
Itingga g'amzada jon rishasini rasan qilg'il.*

Bu baytda Alisher Navoiy o'zining yurak qoni yor itining tuyeqqlarida xino, jon rishtasi – jon ipi yor itining bo'yning rasantasma bo'lish uchun fidoyi ekanligini izhor etadi. Chunki, oshiq shoir bag'ridagi qonning har tomchisi ishq bilan yo'g'rilgan, joni vafo uchun fido, u vafodorlik ramzi bo'lgan yor itining bo'ynda qolishga tayyor.

*Firoq tog'ida topilsa tuprog'im, ey charx,  
Xamir etib yana ul tog'da ko'hikan qilg'il.*

Bu baytda oshiq shoir charxga – falakka murojaat etib deydi: «Men-ku butun umrim, jomim, vujudimming har bir zarrasida yor muhabatiga fido, hijronida ado bo'lib, bu dunyodan o'taman. Zamom-zamontar tanimni firoq chog'ida tuproqqa aylantiradi. Lekin orzuyim shuki, ey falak, ming yillar so'ngida topilgan tuprog'imni xamir qilib yana o'sha firoq tog'ida ko'hikani yaratgil, mening yangi umrim ham muhabatga fido bo'lsin, yor ishqini yo'lda mehnat bilan o'tsin».

*Yuzing visolig'a yetsun desang ko'rgullarni,  
Sochingning boshdan oyoq chin ila shikan qilg'il.*

Bu baytda shoir oshiq, ko'ngillar yuzing visoliga yetsin desang, sochingning boshdan oyoq jingalak qilgin, – deydi. Shoirming tasavvuricha, yor sochingning uchiga yetishgan g'ubor-oshiq ko'ngli jingalak o'rimalar orqali ma'shuqa yuzining visoliga yetishadi.

*Xazon siphiga, ey bog'bon, emas mone,  
Bu bog' tomiga gar ignadan tikan qilg'il.*

Bu bayting ma'nosi shunday: xazon lashkari bostirib kelgach, ey bog'bon, bu bog' devorlariga qancha tikan bosib g'ov qilmagin, baribir bu g'ov kuzning istisosiga mone bo'lmaydi. Inson umri ham niyoyasiga yetgach, hech bir tadbirdan foyda yo'q. Demakki, tirkilik g'animat, ma'shuqaning oshiq boshiga solgan uqubatlari, hijron-u jafovari g'ofilikkdan, tirkilik qadriga yetmaslikdandir. Ammo, oshiq shuncha tazzrular so'ngida yana yorga vafo va sadoqatini izhor etadi:

*Yuzida terni ko'rib o'lsam, ey rafiq, meni  
Gulob ila yuvu gul bargidan kafan qilg'il.*

Bu bayida oshiq deydi: men yorning gul yuzidagi gulobdek terni ko'rib o'lsam, meni gulob bilan yuving, gul bargidan kafan qilingki, so'nggi yo'limda ham yorxayoli menga osmo bo'lsin.

*Navoiy, anjuman shavq jon aro tuzsang.  
Aning boshog'liq o'qin sham' anjuman qilg'il.*

Bu baytda Navoiy o'z-o'ziga murojaat qilib, jon aro anjuman, ya'ni shavq-shodlik bazmi tuzib, yorning o'qlarini sham'i anjuman, ya'ni sham'lar bazmi qilib yoqib qo'ygin, deydi.

Fidoyilik, vatanga sodiqlik, sevgida vafodorlik, ruhiy poklik, ezzulkik insoniy fazillatlarini o'zaro uyg'unkilda ifodalab, ularni sakizinchchi bayida shunday mujassamlashitirdi: ma'shuqa otgan o'qlar oshiq uchun shodlik, nur manbayi.

Insonda his va kayfiyat o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi. Kishi his-kayfiyatlarining manbayi real hayotdir. Inson hayotda yuz beradigan voqe-a-hodisa ta'siridan shodlanadi yoki, aksincha, g'azablanadi, g'am chekadi. Musiqa kishida sodir bo'lgan ana shu his-tuyg'ularni o'z bilan ifodalaydi va shu bilan voqelikni aks ettiradi. Abu Ali ibn Sino musiqani inson kayfiyatini ko'tara-

digan, ruhiy kuch-quvvatini oshiradigan san'at hisoblangan. U ruhiy kuch-quvvatini oshirish uchun eng yaxshi va nafis kuylarni tinglashni maslahat bergan.

Berta Davidova, Xadiya Yusupova, Murodjon Ahmedov, Munojot Yo'licheyeva, aka-uka Shojalilovlar va boshqa xonandalar aytgan qo'shiqlar, jumladan Alisher Navoiyning «Qaro ko'zim» bayti bilan aytiladigan qo'shiq kishi vujudini larzaga soladi, yuksak tuyg'ular olamiga olib kiradi.

«Qaro ko'zim» g'azali darsda o'qib, tahlil qilingach, Berta Davidova (yoki boshqa hofizlar) aytgan «Qaro ko'zim» ashulassini magnitafon tasmasi orqali eshitirish, ya'ni g'azal bilan integratsiyalashtrish o'quvchilarning g'azal haqida bir butun bilimga ega bo'listilarida, ularda so'z san'ati bilan musiqa san'atiga qiziqish, havas, badiiy san'atkorlik his-tuyg'uning rivojida munim omil bo'ladi.

#### INSONPARVARLIK

Xalqning insonparvarlik, ozodlik, baxtli hayot va erkinlik haqidagi qarashlari va ularni amalga oshirish yo'lida olib borgan kurashlari insonparvarlik g'oyasining rivojida muhim omil bo'ldi, ilg'or fikr namoyandalarining pedagogik qarashlariga kuchi ta'sir etdi.

Insonparvarlik g'oyasi har bir davrda hamma vaqt insonning ozodlik va tinchlikka intilishida ifodalananadi. Tinchlik va ozodlik uchun kurash halqlarning insonparvarlik faoliyati hisoblanadi.

Insonparvarlik bu — o'zbek xalqi milliy ruhiyatining oliy darajadagi faziliati, umumbashariy, qadriyatlarining asosidir. Uning tarkibi ota-onha haqidagi qayg'urish, qarindosh va yor-u do'stlarga sadoqatda bo'llish, marhumlarni xotirlash, bermirlarga hamard bo'llish, odamlarga sadoqatlari, moddiy va ma'naviy yordamga muhtojlarga xayrixoh, hayotda iymon va e'tiqodli, adolatlari va haqgo'y, diyonatli, mehr-shafqatlari bo'llishdir.

Yaxshilikka intilish ham ulug' insonparvarlikdir. «Yaxshilikka intilish muruvvatilik va olyjanoblik o'sgani sari kuchayaveradi va yaxshilik jamiki odamlarga yaxshilik qilishdan iboradir». (Abu Rayhon Beruniy).

Yaxshilik (karam) bir jabrlanganning qattiq yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchilikdan qutqarmoqdir. Karam birovning mashaqqat tikani og'rig'ini yo'qotmoq va u tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ismi qaytib tilga keltirmaslik, og'izga olmaslik, kishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslikdir. Yaxshilik inson ta'bida noyob va nodiridir.

Insonparvarlik inson ruhini ko'taradi, unga go'zal axloq baxsh etadi. Insonparvarlik tuyg'usi odamlar o'rtasida o'zaro samimiylik tuyg'usini rivojlantradir. Insonparvar inson o'zini yengil, erkin, quadrati his etadi, uning qalbida ezgu niyatlar barq uradi, qalbini axloq madaniyati egallaydi, loqaydlik, rahmsizlik kabi illat-larga nisbatan murosasiz bo'ladi.

Insonparvar inson tabiatga, hayvonot va o'simlik olamiga ehtiyyotlik bilan munosabatda bo'ladi, muhofaza qiladi.

I - j a d v a l

## INSONPARVARLIK – ULUY FAZILAT

### Insonparvarlik

- Ota-onha haqida qayg'urish
- Qarindosh do'stlarga sadoqatda bo'lish
- Marhumlarni xotirlash
- Bemorlarga hamdard bo'lish
- Moddiy va ma'naviy yordamga muhtoj-larga xavixoh bo'lish
- Hayotda iymonli va e'tiqodli bo'lishdir

Insonparvar inson qalbida ezgu niyatlar barq uradi, qalbi-ni axloq madaniyati egallaydi, loqaydlik, rahmsizlik kabi il-latura nisbatan murosasiz bo'ladi.

O'zbek xalqi ikkinchi jahon urushi yillari g'arbiy o'lkalardan respublikamizga ko'chirib keltirilgan ko'plab turli miltat vakillarini samimiyat bilan kutib oldi, otalaridan ajralgan bolalarni bog'chalarga joylashtirdi, ayrim ota-onalar esa bir qancha bolalarni o'z farzandlaridek uylarida parvarishlab, tarbiyalab o'stirdilar. Masalan, Toshkentdag'i «Rivoj» artelemini ishchisi (temirchi) Shoahmad Shomaxmudov va rafiqasi Bahri Akramova 14 bolani o'z qaromog'iga olishi.

Shoir G'afur G'ulom respublikamiz ijtimoiy hayoti-da sodir bo'lgan bu voqealardan ta'sirlanib, «Sen yetim emassan» she'rini yozdi. Unda xalqimizga xos insonparvarlikni — ota-onha haqida qayg'urish, qarindoshlarga yaxshilik qilish, yor-do'stlarga sadoqatda bo'lish, marhumlarni xotirlash, bemorlarni ziyorat qilish, mod-diy va ma'naviy yordamga muhtojlarga xayrixoh, mehr-oqibatti, shafqatlbo'lish, hayotda iymonli, diyonatli, e'tiqodli, adolatlilbo'lish fazilatlarini ifodalaydi.

O'qituvchi 5-sinfda sakkiz qismidan iborat bo'lgan bu she'rni o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotni quyidagicha tarbiyida rejalashatirishi mumkin:

- o'zbek xalqiga xos insonparvarlik;
- barqaror;
- jang chog'ida qayg'uli kunlar ham bo'ladi;
- o'tmishda yetimlar ahvoli ayanchli bo'lgan;
- uyqudan cho'chib uyg'ongan bolaning ruhiy ho-latini;
- bolalarni qayg'uli ahvolga solgan dushman;
- bola kulgisi — yorug' kun kelishi;
- bolaning erta tongda erkalamib turishi — «oppoq tong» yaqinligi;
- «Sen yetim emassan» asari, unda ifodalangan asosiy g'oyaning tasviriy san'atda ifodalangan g'oya bilan integratsiyalashdirish.
- Reja asosida u xalqimizga xos insonparvarlik bo'yicha o'quvchilarga tubandagi mazmunda bilim beradi.
- G'afur G'ulom xalqimizga xos insonparvarlikni she'rda o'zining bolalarga otalarcha munosabati, ular bilan muloqati misolida ifodalanadi. U: «Sen yetim

emasan, tinchlan jigarim...» — deb yurtimizda «ofat, g'am» emas, «harorat, muhabbat, shafqat» barqarorligi- ni ayтиб, bolalarni erkaydi.

G'afur G'ulom O'zbekiston diyorida «odamzod shakli»dagi «develar namoyish eta olmas»ligini ayтиб, bolalarda xotirjamlik hissini hosil qilishga harakat qildi. G'afur G'ulom hayot-mamot uchun olib borilayotgan jang beomon, xatarli o'kanligini ayтиб, otalacha:

«Otang o'lgan bo'lsa,  
Qayg'urma qo'zim.  
Ko'zin nuri

Minnating boshimga durra.

Shu sog'iom havoda

Salomat — omon,

Xo'rsinmay, erkinlab

Ola ber nafas», — deb bolalarga tasallii beradi.

G'afur G'ulom o'zining yetimlikda o'tkazgan g'amli kunlarini:

«Men yetim o'sgamman, ...  
Boshimni silashga  
Bir mehribon qo'z,  
Bir og'iz shirin so'z  
Nondek arzanda»

bo'lganligini ayтиб, bolalarda haqiqiy yetimlik qanday ekanligi haqida tasavvur hosil qildi. G'afur G'ulom orom orom uyquda yotgan bolalarni mehr bilan kuzatib o'tinganda, bir bola cho'chib uyg'onadi. Shoir uning tepasida parvona bo'lib unga:

Nega cho'chib tushding?

Murg'ak tasavvur  
Go'idak xayolingga

Nimalar keldi?» — deb murojaat etadi. O'zicha bola tushida «Sho'rik onaning pajmuda gavdasini ko'rgan», shuning uchun u uyg'ongan, deb o'yaydi, bolalarni shunday ahvolga solgan fashistlarni la'natlاب:

«Sut ko'r qilgur, haromi  
Gitar oqpadar —  
Farzandning qadrini  
Qayerdan bilsin?  
Nahoki odamlar

Kezar darbadar...» — deb, uni yo'q qilinadigan kunlar yaqinligini aytadi.

Bolalar tinchlikda oron olmoqda. Lablarida kulgi. G'afur G'ulom bu sevinchli holatni ko'rib quvonadi. Bola kulgsi unga ham quvonch baxsh etadi. U:

«Sen kulayotibsan,  
Balki bu kulgi  
So'nggi oyilar ichra

Birnchi chechak» — deb bola labidagi bu kulgi — tabassumning abadiy bo'lishiga ishonadi. U:

«La'lli labingdag'i  
G'uncha tabassum,  
Albat toleinga  
Muhr bo'jadi.  
Va bunda aks etar  
Portoq kelajak.  
Tong yaqin,  
Tong yaqin,

Oppoq tong yaqin» — bolada ham baxtli kunlar, «oppoq tong» yaqinligiga ishonch hosil qiladi. Bola «Oq oydin, tong oldi»da rohattanib uyquga kiradi. Lablari shivirlanib, nimanidir izhor etmoqchi. G'afur G'ulom bola ruhiyatidagi bu sevinchni ko'rib, unga mehr bilan boqib — o'zicha:

«Sen tezda ulg'ayib,  
Olam kezasan...»

— deb, haqorat yemirilib, zulm yanchilib, jahonda «Ozod muzaflar» kunlar bo'lishi haqida so'zlanadi.

G'afur G'ulom she'rda xalqimiza xos insonparvarlikni hayotiy voqeа asosida ifodalaydi. Sakkiz qismidan

iborat bo'lgan bu she'ning har bir qismida bayon etilgan fikr, hodisalar o'zaro uyg'un mantiqan uzyiy bog'langan. She'rning har bir qismi mehribonlik ifodasi bo'lgan «Sen yetim emassan, tinchlan jigarim» so'zleri bilan tugallangan. She'r oljanob xalqimiz qalbining ifodasi bo'lganidek, bu asar zo'r tarbiyaviy ibrat kuchiga ham ega.

Ma'lumki, urushdan keyingi yillarda haykaltaroshlik san'ati abillari Shoahmad Shomahmudov, rafiqasi Bahri Akramovaning bag'ida o'tirgan yetti millat bolalari ifodalangan yodgorlik haykali yaratdilar va bu haykal Toshkentda «Xalqlar do'stligi» maydonida o'matiidi.

Kinofilmlar badiiy asarlar asosida yaratiladi. Voqelevkni har tomonlana, har jihatdan qamrab olish, san'atning boshqa turlariga katta ta'sir ko'rsatish — adabiyot shu xususiyatlar bilan boshqa san'atlarning eng muhimmi hisoblanadi. Adabiyot ana shu xususiyatga ko'ra, ijtimoiy hayotda alohida o'rinda turadi.

Badiiy adabiyot ta'sirida odamlar hayotni yaxshi tushunadilar, uning mohiyatini anglaydilar. Asarlarda ifodalangan badiiy qahramonlar odamlarga hatto, hayot ko'rsatadigan ta'sirdan ko'ra ortiqroq ta'sir etadi.

Badiiy so'z san'ati o'rtasida mazmunan uyg'unlik, uzyiylik bor. Shunga ko'ra, she'r o'qilib, suhbat yo'li bilan tahsil qilish jarayonida Shoahmad Shomahmudov, rafiqasi Bahri Akramova aks ettiligilay haykal, yetim bolalarning bog'chahaldagi hayoti aks ettiligilay foto rasmlarini ko'rsatish, kinofilmidan ayrim kadrlar maznumini so'zlab berish kerak.

Masalan, filmning dastlabki kadrlarda bozor manzarasi ifodalangan. Odamlar o'zlariga kerakli narsalarni olish bilan band. Bir bola payt povylab turib tarvuz sotayotgan kishining bitta tarvuzini o'g'irlab qo'lga tushadi. Yig'lab yolvorishiga quloq solmay, bir soldat bolani sudrab olib ketadi. Sotuvchidan narida voqeani kuzatib, ko'rsatkich barmog'ini alam bilan tishlab turgan ayol ortiq chidab tura olmaydi, faryod chekib soldatning yo'llini to'sadi, undan bolani qo'yib yuborishini yolvorib so'raydi. Bu kadrda biz mehri daryo ona obrazini ko'ramiz, uning ichki hayajonini chuqr his qilamiz.

Filming keyingi kadrlarida bolalarning urush o'yini, Abramning o'z o'tmishini eslab, hushidan ketib yiqilishi va bir ayoilning bolalar bilan uchrashuvi ko'rsatiladi.

Bir kadrda Mahkam akaming o'z hovlisida o'nta bolani atrofiga olib o'tirgani ko'rsatiladi. Shu paytda juldur kiyim kiygan Kolya ismli bola ko'cha eshkida turib, Mahkam akaga murojaat qiladi:

K o l ya: — Kirsam maylimi?

M a h k a m a k a: — A?

K o l ya: — Bolalarini olayotganimishsiz, deb eshitdim. Rostmi shu?

M a h k a m a k a: — Ha, rost.

V a n ya: — Olmang uni! Shundog'am bor yo'g'imizni opchiqib sotib bo'ldik.

M a h k a m a k a: — To'xta, qayoqqa ketyapsan? Oting nima?

K o l ya: — Kolya.

M a h k a m a k a: — Beri kel, Kolya. Bu kadrda Mahkam akaning cheksiz mehr-oqibati, insonparvarligi ifodalangan.

Kinofilmda Mahkam aka rolini artist Obid Jallilov, ona rollini artist Lutfixonim Sarimsoqova ijro etganlar. Ular obrazida insoniy fazilatlar mujassam etilgan.

Ma'lumki, yaxshi fazilat — go'zal axloqning sondagi mujassamidir. Axloq, odob qoidalarini etika deb nomlangan mustaqil fan o'rganadi.

Axloqli insonda e'tiqodlilik, adolatlilik, intizomiliik, to'g'rilik, sadoqatliik, diyonatliik, poklik, sabotiliik, rahndillik, himmatliik, tavozelik, ottonani, kattalarmi hummatlash kabi fazilatlar mujassam bo'ladi.

Axloq qoidalari jamiyat tomonidan qo'yildi, ijtimoiy maznumiga ko'ra, u umumimsoniydir.

Odob — inson kamolotining birinchi omili. Odob — aql buyurgen ravishda harakat qilish, o'zining izzatini bilish, yaramas ishdan yiroq bo'lish, yomon so'zdan tiini tiyish, boshqalar hummatini, obro'sini saqlashdir.

**A X L O Q**

Yaxshi fazlat – go'zal axloqning insondagi majmui

**F A Z I L A T L A R**

- E'tiqodlilik
- Adolatlilik
- Intizomililik
- To'g'rilik
- Sadoqattilik
- Diyonatilik
- Poklik
- Sabotillik
- Sabr-toqatilik
- Rahmdilik
- Himmatlilik
- Tavozelik

3 - jadval

**ODOB – INSON KAMOLOTNING BIRINCHI OMILI****O d o b**

Aql buyurgan ravishda harakat qilish	Axloqsiz ishdan yiroq bo'lish	Yomon so'zdan tilni tyish
--------------------------------------	-------------------------------	---------------------------

O'zining izzatini saqlash

Boshqalar humratini, obro'sini saqlash

Asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan bu fazlatlar buyuk adib Abdulla Qodiriyning noyob durdona asari «O'tkan kunlar» romanida Yusufbek xoji, Otabek, Kumush bibi ijobjiy obrazlarida mujassamlangan holda, o'zaro uyg'unlikda namoyon etilgan.

Yusubbek Hoji Azizbek huzuridan chiqqach, ot usidi da o'zicha so'zlanib boradi: «Soliq yig'ishda qarshilik qilganni darraga yotqizish, muvoofi qo'rganda osdirish haqi ham menqa berilgan emish... Go'yo Yusubbek ham o'zidek bir qonxo'rga, bir zolimga aylansin emish... Men qonxo'rlik uchun xudoning farz qilgan hajini ado qilmadim, oldimda o'g'lim bor, menda boshqalarning o'g'lini darraga yotqizish chog'ida ko'ndalang keladigan vijdon bor, din bor, diyonat bor».<sup>1</sup>

Yusufbek hojining ijtimoiy faoliyati Azizbek bilan bo'lgan muloqotida va ommani unga qarshi kurashga qilgan da'vetlarida, shuningdek, Otabekning Musulmonqu topshirig'i bilan qipchoqlarni qing'in qiliishi so'zlarida ifodalangan. U deydi: «... O'z nashini o'z qo'lli bilan kofir qo'lliga tutqun qilib topshiruvchi biz ko'r va aqsliz otalarga xudoning la'nati, albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi mudfun (dafn qilingan) Turkistonimizni... Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fothilarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali ibn Sino kabi olimilarning o'sib-ungan va nash'u-namo qilganlari bir o'ikani halokat chuquringa qarab sudraguvchi albatta tangrining qahriga sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalarni yetim, xonalarini vayron qiluvchi zolimlar qurtlar va qushlar, yerdan o'sib chiqqan giyohlar qarg'ishiga nishonadur o'g'lim!»

Yusufbek hoji o'z uyida ellik yildan buyon istiqomat qilayotgan, oilasining chin bir a'zosi bo'lib qolgan Hasanaini hummat qiladi, o'tiz yoshida uni bir cho'ri qizga uylantiradi. Oila a'zolari unga ishonch va humrat bilan munosabatda bo'ladilar.

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy. «O'tkan kunlar». T.: «G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1994, 146-bet.  
O'sha asar, 146-bet

Yusufbek hoji rafiqasi O'zbek oyim bilan o'g'li Otabek o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilikni odilona hal qiladi: «O'g'lim, — deydi hoji, — sen onangning gapiga achchig'lamma... sening tinib-tinchishing, o'sib-unishing uchun quvonmagan ota-onahisoblanmaydilar. Sen bunga yaxshi ishon. Ammo bizning hozirgi ba'zi bir ra'ylarimiz senga yetishib kelmas ekan, bunga haqing ham bor, lekin ikkinchi tarafdan, bizni ham haqsiz tashlab qo'yma, o'g'lim. Bizning sendan boshqa umid-ishonchimiz, hayot quvonchimiz yo'q... Bu kun onang sening oldingga tiz cho'kib va onang ko'ngli uchun men ham oraga tushib sendan so'raymiz: sen o'z xohilising yo'lida uylangan ekansan, rafiqang senga muborak bo'lsin. Eskilik da'vosida yur-gan ota-onang tilagi, albatta, shundan boshqa bo'lmas. Uning bu orzusiga haq berasamni, yo'qmi yana ixtiyor o'zingda...»

Yusufbek hoji Otabekning fikrini eshitgach, so'zini davom etib: «Juda to'g'ri aytasan, o'g'lim... biz hozir andishaning bandasi, men emas, onang birovni ishon-tirib qo'yan, bizning oiladan lavfsizlik chiqishi menga ma'qul ko'rinnmaydir» — deb ona orzulari sababini ochiq aytadi. Otabek Marg'ilonga ketishiga otlanganda, Hasanaliga: «O'g'ilim yosh, sen dunyoning issiqsovug'ini totigan va mening ishongan kishimsan. O'g'ilimning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangdir» — deb tayintaydi.

Yusufbek hoji ona bilan o'g'il o'rtasidagi nizoni bartaraf etish niyatida Marg'ilondagi qudasi Mirzakarim qutidorga o'z hurmat va ehtiromini izhor etib maktub yo'llaydi: «Qudamiz Qutidorga va qudachamiz xonimga yetib ma'lum bo'lg'aykim, bizlar munda sog'-salomat-dirmiz va siz hurmatli va izzatilarning ham parvardigori olandan sihattaringizni saloti hamsa (besh vaqt namoz) oldidan so'rab turmoqdamiz. Siz hurmatilarga ma'lumdir, bizning shu Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyodan o'zimizdan qoldiradigan tuyuoqimiz va ko'z tikkan orzu havasimiz, umid hadafimiz (nishonamiz) faqat shul Otabekdir. Birodarim kirom, Siz

dunyo ko'rgan bir kishisiz, onasining bu talabini xo'p mulohaza qilib ko'ringiz, ko'ndirishga sa'y va qo'shish (ya'ni harakat) qilursiz, deb ishomamiz... Bizning xursandchiliklarmiz yo'lida Otabek bilan birga Toshkent tushib, o'z qo'llari bilan to'yimizni o'tkazishingizga ishonib — Yusufbek hoji va qudashalarari...»

Yusufbek hoji Otabekka Marg'ilondan qudalari Toshkentga kelayotganini ma'lum qilganda:

«Qayin otang kelin bolani olib shu hafta ichi yo'nga chiqmoqchi ekan o'g'lim, siylaganni siylash kerak, endi senga qadsizlangan bo'lsalar, ammo bizning qoshimizda ularning qadr-u hummatlari yuqori. Outidor bo'lsa, ko'z ochib ko'rgan qudamiz, xotining bo'lsa, bosh ke-linimiz. Agar sen meni otam deydirgan bo'lsang, shu larning ko'nglini olmoqqa tirish! Qayin otangdan meni quvladi, deb ko'ngling olimmasin, chunki, u bechora ham shaytonning vasvasasi bilan bu xatoga tushgan — har holda hummatlarini bajo keltir, Marg'ilon degan shahardan sening yuzingizni, deb ketadilar. Agar ularning kelish kunlarini aniq bilsak, sen yo'ldan qarshilab kirar eding.

Har holda o'ttasi kun mo'ljal sen chiqmasang ham, Hasanali chiqsin, yo'jga» — deydi.

Quddasi Mirzakarim qutidor, qudachasi Oftob oyim qizlari Kumush Toshkentga kelishganda Yusufbek hoji o'zbekona kiyinib, «boshiba oq do'ppisi va egnida oq olacha to'ni bilan ustidan belini bog'tagan» holda ochiq chehra, samimiyat bilan qarshi oladi. Qudachasi Oftob oyim bilan so'rashar ekan: «Barakkalla singlim! Haytovur charchamay keldilaringmi, men sizlarni ovora qildimov!» — deb kulib uzr aytadi va uyalib qarshisida turgan qudachasiga yengillik baxsh etadi.

Yusufbek hoji o'zbekona urf-odatga ko'ra, o'z oldida salom berib, bo'yin egib turgan Kumushning yelkasiga qo'li bilan asta qoqib qo'yadi va manglayiga tegizib ol-gan qo'llini o'padi va «Bizning Marg'ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-u, biz bilmay yurgan ekam-nida!» — deb tevaragiga qarab kuinadi va qo'llini duoga

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy. «O'tkan kunlar». 135—136-betlar.

ochadi: «Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliklaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin... Illohim taqabbul duo!»<sup>1</sup> Hamma duoga yuz siyashdilar.

Yusufbek hoji Kumush bilan Zaynabga qarab: «Men sizlarni ko'rishib turganlaringizni ko'rib juda quvondim. Bundan so'ng ham shu yo'sinda bir-birlaringiza egachi singildek bo'immoqlaringizni tilayman»<sup>2</sup> — deb, O'zbek oyimga: «Qani mehmontaringizni ichkariga olinglar!» — deb o'zi tashqariga erkaklar oldiga chiqadi.

Yusufbek hoji kundoshlar orasi buzilganini eshitsa, ikala kelinimi oldiga chaqiririb, avalo, Kumushdan o'pkalanib: «Oyim, har nima siz kattasiz, Zaynab yosh, kattadan kichikka shafqat lozim, mundog' yaxshi emas!» va Zaynabga qarab: «Bolam Zaynab otin! Sizdan ham yoshilik g'ururi ketmagan, lekin manim bolam bo'lgon-ligingizni siz ham unutmang» deb, ikkisini duo qilib bir-biriga salom berdirardi «ana, shundog' bo'isin, opoq qizlarim» deb ketishga ruxsat beradi. Ular ketgandan keyin oldiga kirgan rafiqasi O'zbek oyimga, uni sisirab: «Siz ikki kelin ushishni bilmabsiz, Zaynabga jabr qilgan ko'rinasiz, ayniqsa Zaynabning ko'ngliga qarashning kerak, Otabekka ham nasihatning lozim» — deydi. Qayin ona degamning adl turishi lozim. Zaynab siz bilan manim orzu-havasimiz emasmi?»<sup>3</sup> — deb uni tinchitadi.

Yusufbek hoji Kumush o'g'llik bo'lganidan xursand bo'ladi. Ammo, tabibdan «zahar ichibdi» degen so'zni eshitganda qattiq g'azablanadi, zaharni Zaynab berganligini bilib: «Chiq, Zaynab, chiq. La'nat sendek xotin-gal!»<sup>4</sup> — deb uni haydab chiqarib, Kumushning boshiga kelib o'tiradi, o'z qo'lli bilan sochlarni tuzatib Kumushning ko'kimtil tovlangan manglayini bosadi: «Oyim... oyim!» — deydi. Kumush ko'zini ochib bersarajom unga nazar tashlab, tanib qo'zg' almoqchi bo'lganda Hoji: «Qo'zg'alman, oyim... qo'zg'al-mang!»<sup>5</sup> — deydi.

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy. «O'tkan junlar», 312-bet.  
<sup>2</sup> O'sha asar, 362-bet.  
<sup>3</sup> O'sha asar, 372-bet.  
<sup>4</sup> O'sha asar, 372-bet.  
<sup>5</sup> O'sha asar, 372-bet.

Yusufbek hoji Kumushning ko'z yoshi chekkasidan oqib tushganini ko'rib o'zini to'xtata olmadi, Kumushning yoshini artib, boshini siladi: «Xudo shifo berar, bolam!» — deb fotiha o'qidi.

Ertasi dafn marosimi bo'iganda, qabristonda Yusufbek hoji qo'ygan qori tilovat qilib o'tirdi. Yusufbek hojidek tabarruk otalar va ularning purhikmat pand-u nasihatlari hozirgi kunda ham zarur. Bu nuroni symoni el o'trasida baland ehtirom maqomiga ko'targan fazilatlar — sobit iy-monlik va insoniy andishadiri. Yusufbek hoji hech vaqt bu sifatlarni tark etmadı. U umr bo'yli xalqni qo'lidan kelgancha adl-u insofga chorladi, el-yurt andhasi hech qachon xotirasidan ko'tarilmadi. U «Bu soqol shu el qayg'usida oqardi, ...manfaatparastlar ta'sirida qoraydi» — deb kuyindı.

Otabek — og'ir tabiatli, o'qimishli, yurtlariagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy voqealardan xabardor, o'zida insonparvarlik, xalqparvarlik, vafodorlik, go'zal axloqlilik fazilatlarni mujassam etgan yigit. Abdulla Qodiriy bu xislat va fazilatlarni uning ijtimoiy va oilaviy faoliyatida ifodalagan.

Otabek ota-onani hurmat qiladi, uylarda uzoq yillardan buyon xizmat qilayotgan qul Hasanaliha ham samimi munosabatda bo'ladi.

U Marg'ilonda dongedor saroya turganda hujrasiga ruxsat so'rab kingan savdogar Rahmat va uning jiyani Homidni samimiyyat, ochiq chehra bilan qarshi oladi. Shu vaqtda hujraga kingan biroz tobi bo'lmay turgan Hasanalidan, avvalo, uning sog'lig'ini so'raydi. «Xudoga shukur» javobini olgach:

— Ba'zi yumushlar buyursam..., — deydi.

— Buyuringiz, o'g'llim — deydi Hasanali.

— Rahmat, ota, bo'limasa bizga choy qaynatib berin-sangizchi — deganda Hasanali: «Xo'p begin!» — deb hujradan chiqadi.

Otabekning Hasanalini hurmat qilishini ko'rean Rahmat "Bu kishi kimingiz bo'ladi bek aka" — deb so'raydi. Otabek awal esnikka qaraydi, Hasanali huj-

radan yiroqlashgach, «qu'limiz» deb javob beradi.

Chunki, u Hasanalini ma'naviy ota deb biladi.

Ziyo shohichining uyidagi bo'igan o'tirishda Yusubek hojining yaqin do'staridan Mirzakarim qutidor, Andijon savdogarlaridan Akram hoji, Rahmat, Homid, Hasanali bo'ladi.

Bu yerdag'i suhbat chog'ida Akram hojining Azizbek haqida bergen savollariga Otabek javob berar ekan, otasi bilan Azizbek o'rasiда bo'lib o'tgan voqeani, Azizbek Qo'qomning yorlig' va farnmonlarini ilifotsiz qoldira boshlaganini so'zlab beradi.

Suhbatda Homid Otabekdan savdo bilan qanday shaharlarda bo'lganini so'raganda, u Shamay (Semipalat) shahrida bo'lgani, ruslarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, haqida gapirib: «Shamayda ekanman qanotim bo'lsa, vataninga uchsam, to'ppato'g'ri xon o'rdsiga tushsam-da, o'risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig' yozib o'risning idora tartibini dasturulamal etishga buyursa, men ham bir oy ichida elimni o'risniki bilan bir qatorda ko'rsam... Ammo o'z elimga qaytib ko'rdimki, Shamayda o'ylanganlarim, oshiqqanlarim shinin bir xayol ekani! — dedi

«Manimcha... bizning kundan kunga orqaga ketishimizga o'zaro nizo'imiz sabab bo'imoda... Oramizda bu qo'reqinch holatka bahaqqi tushunadirgan yaxshi odamlar yo'q, bil'aks buzg'uchi va nizo'chi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chiqqirig'a qarab tortadilar. Bu kungi «qora chopon» (o'zbeklar) va qipchoq nizo'lарini siga bir misol o'minda ko'satayin. Bu nizo'lardan foydalanuvchilar ikki xalq orasiga a doval urug'ini sochib yurg'uchi bir necha ig'vagar boshlilqlardir. Masalan, Musulmonlari kim xolis odam, deb o'ylaydir? Uning yurt uchun qon to'kishdan boshqa nimaga foydasi tegdi?... Qo'y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoq bekni o'idirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belgiladi.... Toshkand tarixda misli ko'rilmagan Azizbek kabi vaxshiyni faqat shu

Musulmonqul qo'lidan oldi»<sup>1</sup> — deb o'z axborotini tungiadi. Yig'ilish ahli axborotidan mammun ekanligini aytib, unga o'z yigitlari ichida eng aqlisi, deb baho berishdi.

Mirzakarim qutidor o'z uyida bo'igan o'tirishda Otabek cheksiz hurmat-ehtiromda bo'ladi, xayolini «kiroyi kuyoving shundog' bo'lsa», degan fikr egalladi. Nihoyat, Hasanali va Ziyo shohichi vositachiligidan Otabek o'z murodiga erishadi, ya ni sevgani — Kumushga uylanadi.

Otabek ota-onasining orzusiga ko'ra Toshkentdan uylanishga rozilik berganda, insoniylik hissi ustun kelib, o'zining iloisiz holini, sevgilisi Kumushning bu voqeadan nechog'lik iztirob chekishini o'ylaydi. U otaona orzusi bu uysa kelin bo'lib tushayotgan qizga achnadi, vijdoni qiymaladi. U o'zidan javob kutib turgan ota-onasiga yalinchchoq bir ohangda shunday deydi: «Men sizlarning orzularingizni bajarishiga — agar xur-sandchililingiz shu bilan bo'lsa, har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko'ra bila turib jabr ham xiyonat... O'g'lingizning vujudi orzuungizni qondirish oson bo'lsa ham, keliningiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o'mida tasavvur qilingiz!»<sup>2</sup>

Otabek bu voqeadan Kumushni ogoh etish uchun Marg'ilonga borganida Kumushning «yer tegi»dan bir kulib boqishining ta'siri bilan o'z ustidagi tog'dek bosib yotgan «orzu»ni ag'darib tashlagandek bo'ladi, barchasi Kumushning shu birligina kulib qarashi oldidan o'tabersin, deb Toshkentga ham bormaslikka ahd qiladi.

Xufton namozidan so'ng, yuda Fuzuly she'rлarini o'qib o'tirgan chog'ida oldiga kirgan Kumushning ko'zlarida yoshlanmi ko'rib: «Kim yig'latti sizni?», «Yig'latgan men emasmi?», «Ota-onha rizoligini bir to'mchi ko'z yoshingizga arziddimi?», «Siz ko'ndingizmi, nega?», — deb so'raganda, Kumush: «Meni unutmaysizmi?» — deb undan so'raydi.

Suhbat chog'ida bu ikki jon, ikki yurak go'yoki bit-

<sup>1</sup> O'sha asar, 19-bet.

<sup>2</sup> O'sha asar, 137 bet.

tadek, bir-birisini anglar, birisidan birisiga o'tib yurar edi.

Otabek Homid va uning hamfikrlari bilan bo'lgan kurash voqeasidan keyin Toshkentga kelgach, Kumushga quyidagi mazmunda xat yo'llaydi:

«Oy yuzli rafiqam Kumush xonimgal Uyingiz orqasida qilgan adabsizliklarni uchun meni kechiringiz. Mening uchun oyog'ingiz uchida jon berish juda shirin edi va ko'pdan beri g'oyam edi. Shu sababli yaqinroq ingizda o'lmoq uchun ... Dushman tomonidan uyingizga ochilgan tuyumukchaga kirdim Hafif tin olgandagi latif uxlagan tovushingizni eshitdim. Shu vaqt, subhonollo... o'zimda kutilmagan bir kuchni sezgan edim. Men o'zimga bag'ishlangan kuch manbaini juda yaxshi angladim, mendagi bu o'zgarish manbai uy ichida uxlaguvchi bir malak edi. Siz edingiz!... «Men Toshkentda yuraman, ammo ko'z o'ngimda sizning haykalingiz! Ajabo, busiz menga mumkinmi? Zavjingga Otabek»<sup>1</sup>

Mirzakarim qutidor, Oftob oyim Toshkentga kelishgan kuni mehmonlar tarqalishgach, xonada Otabek Kumush bilan suhbattashadi.

Kunlar, oylar o'tib, Kumush Otabekka o'g'il taqdime etadi. Otabek Kumush yotgan uya kirib «Muborak bo'sin» — deb uni tabriklaydi. U Kumush zahar ichganini bilib, telbalarcha yugurib uning yoniga kelib, yuzini oshib mangayagini silab o'padi. Kosadagi atalani «Ich muni, ich!» — deb Zanyabga otadi, «Ket... ket, taloqsan!» deb haydaydi.

Kumush vaftot etadi, ertasi kun dafn marosimi bo'la-di. Otabek uchinchi kun qabr yoniga kelib, tuni bilan shu yerda qoladi.

Ozbekona ma'rakaldan so'ng Marg'ilonga ketadi. Bir yildan keyin usta Olim bilan Toshkentga kelib, bir hafta turgach, so'nggi kech yolg'iz o'zi Kumush qabri yonida bo'ladi.

«Kecha oydin, qabriston tip-tinch, uzoqlardan qur'on tovushi eshitilar edi. Yuqori va quyi do'mpaygan qabrilari bu tilovatga somi' edilar. Qur'on oyatlari qabris-

ton ichida og'ir ohangda oqar edi. Qabr yoniga tiz cho'kkan Otabekning ko'z yoshlari ham qur'on oyatla-ri ga qo'shilib oqar edi»<sup>2</sup>.

Kumushbibi — Mirzakarim qutidor va Oftob oyimning yolg'iz qizi, Kumushda o'zbek qizlariga xos milliy, ma'nawiy-axloqiy go'zallik, iffat, sharm-hayolik, vafodorlik, sevgida sadoqatlik, sezgirlik, ochiq ko'ngilik, xushro'ylik, ota-onaga mehribonlik fazillatlari uning xatti-harakatlarida mujiassam etilgan.

Kumush Otabekni qalbdan sevadi, xursandchilik kunlarda ham, tashvishli kunlarda ham unga sadoqatda bo'ladı.

Kumush Otabek ota-onasiga orzusiga ko'ra uylanishga rozilik berib, Marg'ilonga kelganda, u bergen savollariga «Men rozi, men ko'ndim», «Negaki men siga ishonoman», «Shuning uchun ko'ndim», «Bilaman» deb Otabekning yaqiniga suriladi va tirsaklari bilan uning tizzasiga yonboshslandi.

Kumush Otabek va Homid yozgan xattlarini bir-biriga solishtirib, ular ikki kishi tomonidan yozilganini aniqlagach, «Bechora begin!» — deb otasiga: «Shu voqeadan so'ng kuyovingiz aniq kelgamni edi?», «Bechorani haydadingizda, nega meni, loqaql oyimni bu kelishdan xabardor qilmadingiz?», «Qizingizni taloq qilgan bir kishini Toshkent degan joydan eshigingizga kelishi sizga g'arib tuyulmaganni edi?» — deb murojaat qiladi.

Kumush Hasanalidan Otabek va otasi Mirzakarim qutidor tuhmat bilan zindonga solinganini bilganda, Yusufbek hojining Toshkent hokimi Azizbek hokimlikdan olib tashlanib, o'rniga Normuhammad qushbegi belgilanganha qida Otabekka yozgan xatini topib, Otabek va otasi dor tagiga olib ketilgan damda dadil O'tobbyoy qushbegi saroyiga kirib, xatni unga topshiradi. Qushbegi xatni o'qib, hukmni bekor qiladi, Otabek bilan quidorni dor tagidan olib keltiriladi. Ular keltirilganda saroy atrofida to'plangan odamlar xursand bo'lishadi. Otabek bilan quidorming o'limini kutayotgan

<sup>1</sup> O'sha asar, 376-bet.

<sup>2</sup> O'sha asar, 265—266-betlar.

Musulmonqul o'z qo'li bilan Otabekka zarrin to'n kiy-gizadi.

Kumush ota va onasi Toshkentga kelganda paranjisi qo'lida, qora atlas egnida, zangori latta mursak ustida, oq shohi ro'mol boshida, shahlo ko'zları kulimsrashga yaqin, uyatli holda O'zbek oyimga salom beradi va qo'lida paranjini yerga tashlab, yugurib kelib o'zini uning quchog'iga oladi. So'ngra uyalib zo'rg'agina salom berib, Yusubek hojining yaqiniga kelib bo'yin egadi.

Kumush ota-onasi Marg'ilonga olib ketmoqchi bo'lishganda, Toshkentda qolisini ayrib: «Qolsam o'z erimniki, begona emas» — deb, qayin onasi O'zbek oyimning savoliga: «Menda ixtiyor yo'q, oyijon. Sizlar nimani ma'qul ko'rsangiz, menga baribir» — deb javob qiladi.

Kumush oyisi Oftob oyim «Ko'rolmay o'lam, men dan rozi bo'll» — deganda, «Siz ham oyis» deydi, otasi Mirzakarim qutidor: «Ko'rishguncha, qizim», — deganda: «Xayr, otajon» — deb ular bilan xayrlashadi.

Kumush buvusi vafot etganda, buvisiga bo'lgan hurmat, ehtiromini izhor etib onasi Oftob oyimga maktub yuboradi. Unda deydi: «O'lim haq, ammo bechora buvim jon berar ekan, yonida turib duosini olib qolmaganim uchun ko'p hasrat chekdir... Ko'z yoshlarim bilan yuzimni yuvdim. Bugun beshinchchi kundan beri rahmatlik buvum arvohiga atab qurig'on boshladim. Xatim qilib bag'ishlayman, xudo g'ariki rahmat qilsin, sizga sabr bersin. Endi musofir qizingizning baxtiga siz o'imang, omin...

Siz ranjisangiz han aytay: qayin otamni o'z domandan ham yaxshi ko'raman. Bu yaxshi ko'rishim kuyovingizning dodasi bo'lgani uchun emas, balki uning nur ichiga cho'milgandek bo'lib ko'ringan synosini, «Oyim» deb xitob qilgandagi muloyim, beazor va muasir so'zini yaxshi ko'raman. U nasihat uchun og'iz ochsa, vujudim erib ketgandek va bir turli uxlab huzurlangadek, bo'ladis!

Kumush Zaynab bergen zahar ta'siridan ko'ngli

aynab, qusa boshlar ekan, «Oyi... doda... begin» — deb ingravdi. Yuzini Otabek yuziga qo'yadi, uylagansimon ko'zini yumadi...

«O'tkan kunlar» romanini asosida yaratilgan kinofilmida Yusubek hoji siyemosini va ijtimoiy faoliyati, tad-birkorlik va donolik xislatlari namoyon etildi.

Filmida Otabek ko'pni ko'rgan, fe'l'i keng yigit sifatida ko'rsatiyan, uning Toshkent va Marg'ilon orasida sarsor-sargardon yurishlari, Mirzakarim qutidor eshigidan haydalib, mayxonada tanbur navolari ostida, dili xasta ma'sum xayol quchog'iga g'arq bo'lishi, ruhiy kayfiyatlar ochib berilgan. Otabek va Kumushning sevgida bir-biriga sadoqatligi, samimiyyati namoyon etilgan.

Filmida xon va uning atrofida hamfikrlari, Homid va uning qora niyatli sheriklarining yovuz xatti-harakatlari ko'rsatilgan. Film mualifli o'gan qora kunlarni ko'rsatish maqsadida, Otabek va Kumush taqdirini bayon etgan. Ana shu chin muhabbat egalarining taqdiri orqali tarixiy voqealarini ifodalagan.

Darsda «O'tkan kunlar» romanida aks ettirilgan obrazlar, voqealar o'rganilganda, kinofilmida ularning namoyon etilishi haqida qiyoslangan holda ma'lumot berilsa, bu integratsiyalashda, shubhasiz, o'quvchilar «O'tkan kunlar» Yusubek hoji, Otabek va Kumush obrazlari chin inson, sevgi, vafo va sadoqat timsoli ekanliklari haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladilar. Otabek va Kumush o'rjasidagi iliq va romantik muhabbat o'quvchilar qalbiga kuchli ta'sir etadi, ularda sevgini qadlash hissi ham rivojanadi.

**Vatanparvar** — o'z vatanini va xalqini cheksiz sevgan, vatan manfaati uchun fidoyilik ko'rsatgan inson. Uning vatanparvarligi ota-bobolarining muborak nomlariga dog' tushirmaslikka intilishi, vatanga, uning tabiatini va xalqiga muhabbatli bo'lishida, vatan, vatan tarxi, ma'naviyatini bilib olishga qiziqishi, avaylab asrashi va boyitishida; milliy ona tilini e'zozlash, boyitishida; an analarini teran bilib olishga, vatan quadrati va yutuqlarini o'z bilimi va mehnati bilan mustahkamlashi da namoyon bo'ladı.

## VATANPARVARLIK – BENAZIR FIDOVILIK

### Vatanparvarlik

- Ota-bobolarimizning muborak nomlariga dog' tushir-maslikka intilish
- Vatanaga, uning tabiatini va xalqiga muhabbatli bo'lish
- Vatan tarixi, ma'naviyatini bilib olishga qiziqish, avay-lab astash va boyitish
- Milliy ona tilini e'zozlash, boyitish
- Vatan qadriyati va yutuqlarini o'z bilimi va mehnati bilan mustahkamlash.

Vatanparvar – o'z vatanini va xalqini cheksiz sevgan, vatan manfaati uchun fidoyilik ko'rsatgan inson.


Vatanparvarlik asrlar davomida tarkib topgan hissi-yotdir. U xalq og'zaki ijodida, fan, badiiy adabiyot, tasviriy san'at, musiqa va me'moriyakda ifodalangan. Buni afsonaviy Shiroq, tarixiy shaxslar – Temur Malik, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi ko'plab qahramonlar timsolida ko'rish mumkin.

Eron shohi Doro I miloddan awval V asr oxirida Amudaryodan o'tib, Sug'diyani (O'zbekistonning g'arbiy qismini) bosib olgandan keyin, shak qabilasi tomon yo'l oladi. Shak qabilasining boshlig'i Rustak o'z huzuriga qabila oqsoqollarini chorlab, ularga vaziyatni tushuntiradi.

Eron shohi Darayavush O'kuzdan<sup>1</sup> kechib, Sug'diyani<sup>2</sup> bosib olib, katta qo'shin bilan kelayotganini ayrib, dushmanni daf etish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini urug' oqsoqollaridan so'radi.

<sup>1</sup> O'kuz-Amu.

<sup>2</sup> Sug'diya – bozirgi O'zbekistonning g'arbiy qismi. Eron shohi Doro eramizdan ilgarigj V asr oxirida Sug'diyani bosib olib eddi.



Алишер Навоий



Алишер Навоий мусика тингламоқда



Алишер Навоий халқ орасида



Жалолиддин Мангуберди



Субхиладам

Абдулла Колдирий



Ғафур Гулом



— Qo'lidan ish kelmaydigan chollar, kampirlar, bo-lai xotinlarni qo'y va yilqilar bilan uzoq cho'larga yu-borib, qolgan er va ayollarning barini qurollantirsak va dushman bilan bir tomchi qonimiz qolguncha urush-sak, — deb gap boshladi urug' oqsoqlaridan Saksfar. U oltmishta borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qip-qizil, serg'ayrat va tavakkalchi odam edi. — Zolim Eron shohinga qui bo'lgandan ko'ra, jang may-donida o'lgan yaxshi.

Rustak oyylanib:

— Jangda mardlaracha o'lmoq oson gap, lekin dush-manni yanchib tashlab, undan qasos olmoq qiyin. Biz mandik ko'satib, nomimizni qoldirish to'g'risida emas, balki el-yurttimizning erkini qanday saqlab qolish to'g'risida o'yashimiz kerak, — dedi u qiziqkon Saksfarga qarab.

Oqsoqlar Eron qo'shini bilan bog'liq mushkul muammoni yechish uchun bosh qotirib o'tirganlarida, o'tov eshigi oldida turgan qurolli yigit Shiroq degan bir cho'ponning kirishiga ijozat so'rayotganini bildirdi.

— Shiroq? — deb qoshini chimirdi Rustak. — Kim u?

— Shiroq bizning urug'dan. O'zi ertakchi, dostonchi dono chol. Butun umri cho'ponlik bilan o'tgani, — dedi Saksfar.

Undog' bo'lsa, chaqir bu yoqqa o'sha dono chol-ni, — dedi Rustak.  
Eshikdan yoshi oltmishdan oshgan, tetikkina barvas-ta bir chol kirib, ta'zim qildi.

— Ijozat bersanglar, men ham qatoringiza o'tirib, o'z fikrimni aytasam. Nima to'g'risida gaplashayot-ganigizni bilaman.

— O'tir, o'tir, gapingga quloq solamiz, — dedi Rustak.

— Eron shohining askarları Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko'p, ularni jangga chorlab, yengish mahol. Ammo ularni qirib tashlash uchun bir yo'l bor. Qulq soling...

Oqsoqlar Shiroqning og'ziga tikildilar. Borgan sari ularning yuzlari yorishib, ko'zlaricha qaznayaverdi. Oq o'tovdan nariroqda cho'qqayib o'tirgan kishilar



Зулфия

Shiroqni yaxshi tanir, uning qo'biz chalib aygan dos-tonlarini ko'p maria tinglagan, o'zi o'sha dostonlarda madh etilgan sher yurak odamlardan biri ekanligini bilar edilar.

— Agar mening bola-chaqam va nevaralarimi unutmasangiz, o'z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim, bir hiyla ishlatib, shoh lashkarini qirib tashlardim — dedi.

Oqsoqollar uning gapini oxirigacha tinglab, fikrini ma'qullagan edilar. Shunda Shiroq yonidan o'tkir pi-chog'ini olib, o'z quiloq-burnini kesi... .

O'ziga kelgach, o'midan turdi-da, kun botish tomonga ketdi. Hang-mang bo'lgan kishilar uning orqasidan qaraganlanicha qoldilar.

Eron shohi Yaksartning o'ng qirg'og'idagi ko'chmanchilar ustiga yurish oldidan dam olmoqda edi.

Ikki qurolli mulozim boshlab kurgan Shiroq shohdan o'n besh qadamcha berida to'xtadi-da, ikki qo'llini tirab yer o'pdi va o'midan turib, ta'zim qiganicha qotib qoldi.

Doro kamon qoshlarini chimirib baland ovoz bilan:

— Hoy odam, o'zing kimsan, oting nima va qaysi urug'dansan? — deb so'radi.

— Otim Shiroq, o'zim sak urug'idaman, — deb javob qildi chol.

— Kelib mening istirohatimni buzmoqdan maqsadning nima?

— Maqsadim, shahanshoh, a'llo hazratga xizmat qilmoqdir. Janoblariga xayriyoh bo'lganim uchun qabila-dosqlarimdan juda qattiq sitam ko'rdim. Ularga men: «Shohi Eron bilan urishaman deb ovora bo'imang, sizlarni bir hamlada tor-mor qiladi, yaxshisi itoat kamari bo'lib borib, u zot bobarokotning etaklaridan o'ping», — dedim. Hukmdorimiz Rustak bu gapimni eshitib g'azabga keldi va mening quloq, burnumni kesdi. Men endi sizning yordamingiz bilan undan o'chimni olmoqchiman. Agar ijozati oly bo'lsa, yengilmas qo'shiningizni yolg'iz podachilar biladigan so'qmoqlar bilan sak lashkarlarining orqasidan olib chiqar edim, keyin ularni tor-mor qilish qiyin bo'imasdi..

Shiroq shohning ishonchszilik ko'zi bilan qarayot-ganini fahmlab, o'z so'zining to'g'riligini isbot qilishga kirishdi:

— Axir quloq, burnimni yaqinda kesilgani ko'rini turibdi-kul! Biznikilar bekorga o'z urug'lariga bunday sitam yetkazmaydilar, faqat shoh tarafdarlarning quloq-burinlarini kesadilar...

Shiroq Eron shohiga «sodiqligini», saklarga «dushman» bo'lib qolganini isbot qilishga tirishdi, so'zining oxrida ont ichdi.

Doro sarkardalari bilan maslahatlashib, saklara ustiga qo'shin yuborishga, Shiroqni esa yo'l boshlovchi qilib olishega qaror berdi.

Eron askarları yo'l boshlovchingin maslahati bilan yetti kunlik suv, oziq-ovqat va yem-xashak olib yo'iga chiqdiilar va ko'chmanchilarini chalq'itish uchun daryoning chap qirg'og'idagi qum sahrolaridan borib Yaksartdan kechib o'tmoqchi va ulaga orqa tomonдан hujum qilmoqchi bo'ldilar.

Bora-bora cho'l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suuga ehtiyoji osha bordi. Sahroning berahm quyoshi odamlarning boshidan go'yoki olov selimi quyar, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustidan jumrlab turgan qaynoq havo o'pkalarini yondirardi.

Lashkarboshilarning toqatlari toq bo'lib, Shiroqdan saklar lashkargohiga qancha masofa qolganini surishtira boshlabi. U esa yaqinlashib qolganliklarni va yana ikki kun yurish kerakligini aytib, boshliqlarni yupatgan bo'ldi. Sermashaqqaq safarning yettinchi kuni ham saklardan darak topmadilar. Hamma yoq dashi-biyobon, odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadi. Suv, oziq-ovqat, yem-xashak tamom bo'lgan, oriqlab ketgan otlar yer iskab suv qidirdilar, qovjiragan lablari shisib ketgan odamlar bir qultum suv uchun bir yillik umrlari dan kechishga tayyor!

Shiroqni o'rtaga olib: «Bizni qayerga boshlab kelding, ablah!» — deb qistoyga oldilar. Askarboshilardan biri uning yoqasidan ushlab siltadi va haqorat qila boshladi. Shiroq yoqasini uning qo'lidan qutqarib, namat palpog'ini boshidan oldi-da, serajin va keng pesho-

nasining terini artdi. Uning qoviragan lablari istehzoli tabassumdan yorishib, qiyiq ko'zlarida o't chaqnab ketdi. Atrofini qurshab olgan g'azabli chehralarga mag'rurlik bilan qarab turib, qalpog'ini yerga bir urdi-da, qahqah urib kulib yubordi:

— Men yengdim, Doro qo'shimini bir o'zim yengdim! — dedi u qichqarib, — sizlarni aldarab sahroning qoq o'rtasiga olib keldim. — U qo'li bilan kun chiqish va kun boitish tomonini ko'rsatdi. — Bu yog'i ham yetti kunklik yo'l, bu yog'i ham. Istagan yeringizga boravering. Mening go'rim shu yerda, — deb oyog'i ostini ko'rsatdi. U o'z elini qullikdan qutqarib qolish uchun jondan kechgan, yovuz dushmanni hiyla tuzog'iga ilintirish uchun ming turli azob-uqubatni bo'yning olgan edi. Mana u niyatiga yetdi, dushman askarini halokat jari yoqasiga boshlab keldi. Endi dushman nima qilsa qilaversin!

G'azabdan qutirgan Eron sarkardalari Shiroqni o'rab olib, uni ura boshladilar. Sarkarda Rano bat hamma yog'i dabdalal bo'lub ketgan Shiroqni ular qo'ridan quiqrarib, bir chetga olib chiqdi-da, suv ichirdi, so'ngra chodirga olib kirib, uni yaxshilikcha yo'iga solmoqchi bo'idi.

— Agar sen sahro quduqlari va chashmalarini bizza ko'rsatsang, gunohingdan kechib, Sug'diyada istagan qishloqardan o'ntasini senga in'om qillardik, — dedi u. — O'z elimning dushmanlariga yordam berishni istamayman, — dedi Shiroq gapni qisqa qilib. Halokat jari yoqasida qolgan eroniyilar achchig'lari ga chiday olmay fidokor cho'ponni chopib tashladilar.

XIII asrda Chingizxon Movarounnaxra boстirib kelganda Xo'jand hokimi Temur Malik ayrim qo'shin boshliqlari va hokimlarining Hindiqush tog'iga chekinish kerak, degan maslahatlarini xiyonat deb biladi. Ularga qarata: «Hatto ojiz inson ham bor kuchi bilan tashlansa, yo'ibarsni ham yengadi. Nahotki, biz chekinishni o'yitasak? Dushmanni saraton issig'idan qochadi demaklik — nodonlik!» deb xitob qiladi va Xorazmshohga deydi: «Amringega doim muntazimmen. Jangga kirsak, o'qimiz nishonga tegishimiz, qilichimiz omonda yarqirashini ko'rsinlari!».

Temur Malik qo'shinni mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jangga boshlaydi, ularga Vatanni sevish va uni qanday himoya qilish borasida namuna ko'rsatadi. Temur Malik boshchiliqidagi qo'shin bir necha oy Xo'jand shahri qal'asini himoya qilib turadi. Temur Malik jasorati va sarkardalik iste'dodiga dushman tanberadi. Uning nomi xalqimiz tarixida jasorat, vatanparvarlik namunasi bo'lub saqlanadi.

Chingizxon qo'shinni Urganchni qamal qilganda Najmiddin Kubro ham o'z xalqi va Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbatini namoyon etadi. Najmiddin Kubroning dovrug'-shuhuratidan xabardor bo'lgan Chingizxon unga choper orqali quyidagi mazmunda taklif yo'llaydi:

«Men Xorazmni qatlom qilmoqchiman, shuning uchun sizdek ulug' shaxs u yerdan ketib, bizga qo'shilishingizni so'rayman».

Shayx Najmiddin Kubro Rahmatulloh alayh unga javoban bunday deb aytadi:

«Men yetmish yil davomida xorazmliklar bilan turmushning achchiq-chuchugini birga toqgamman. Endi ular boshiga balo-qazolar yog'ilayotgan bir paytda qochsam muruvvatdan bo'lmaydi».

Shayx Kubroning ona Vataniqa sadoqati uning «Shutuproqda tug'ilibmiz, shu tuproqda o'lamiz!» degan xitobida imoni ifodasini topganki, u ana shu qasamyodiga sodiq qoladi. U jang maydonida eng oldida qilich ko'tarib bordi.

«Men bu yerda o'zimning eng yaxshi kunlarimni o'tkazdim, endi bunday halokatlari kunlarda shaharni tashlab ketish pastkashlik bo'lur edi» — degan so'zlar yurtiga bo'lgan mehr ifodasi bo'idi.

Najmiddin Kubro jangda Chingizxon qo'shinariga qarshi mardonva kurashdi. Bundan dahshatga tushegan mo'g'ul lashkarları unga yopirilib, uni vaxshiyarcha halok etdi.

Jaloliddin Manguberdi 1220-yildan to 1231-yil-gacha, ya'ni o'n bir yil davomida mo'g'ullar istilosiga qarshi qahramonona kurashdi. XIII asrda mo'g'ul bosqinchilariga qarshilik ko'rsata olgan va hatto yenga olgan birdan bir lashkarboshi va davlat arbobi edi.

Jaloliddinning shaxsiy kitobi, hayotining so'nggi damlarigacha u bilan birga bo'lgan, uning «Jangnomalar»ni yozib qoldirgan tarixchi olim an-Nasavy (1184—1249) o'zining «siyarat as-Sulton Jaloliddin Manguberdi» (Sulton Jaloliddin Manguberdinining tarijmai holi) nomli qimmatli kitobini 1241-yilda yozib qoldirgan.

Jaloliddin Manguberdini shunday tavsiflashadi: «U o'rta bo'yli, turksifat, bug'doymag'iz, o'ta kelishgan, sog'lom va baquvvat yigit edi. U ona tili turkiyda juda soz va mazmundor gapirar hamda forsiy tilini yaxshi bilan edi. U haqiqiy sher edi. Yurish-turishida va odamlar bilan muomalada doimo jiddiy va o'ychan edi. Bemavrid kulmas, kezi kelganda faqat jilmayib qo'yari edi. U juda kamgap edi, asabylashgani va kishiga qattiq gapirgamini ko'rmas edik. U rahmdil va adolatl, insonlarga g'amxo'r edi. Ammo mo'g'ul bosqinchiligi tufayli yuz bergen qiyinchiliklar davrida bu odatlariga riyo qila olmay qolgan hollari ham bo'igan».

1221-yilda Jaloliddinning mo'g'ullar ustidan Niso, Nishapur, G'azna atroflarida qozongan g'alabalari Chingizzxonning oromini buzmoqda edi.

Sulton Jaloliddin G'aznaga yetib kelganda Xorazmshohning tarqalib ketgan qo'shninari uning atrofida to'plandilar. Jaloliddin bu kuchlar bilan G'aznaga yaqin bo'lgan Volyon qal'asi atrofida Chingizzxonning Bekchak va Timur boshliq qo'shnini yakson qildi. Dushman 9 ming jangchisidan judo bo'lib, juda ko'p o'jja, boyliklarni tashlab qochdi. Chingizzxon bu shum xabarni Tolqonda turganda eshitdi va Dogtor lashkarbosishi Qayqur Nuyon boschhilgida 30 ming kishilik qo'shinni yubordi. Jang 1221-yilning yozida Parvona dashtida bo'ladi. Jaloliddin jaangler tarixida birinchi marta mo'g'ullarga qarshi kurashda yangi taktik usulni qo'llaydi: Jangchilarga otdan tushib, jiloviarini bellarini bog'lashni va kamon bilan jang qilishni buyuradi. Tun qorong'usiga qadar davom etgan jangda ikki tomonning bironasiga zafar kilib boqmaydi. Keyin chalik dushmanning bir necha hujumi qaytarilgach, sulton buyrug'i asosida chalingan karnay sadolari ostida Jaloliddin askarları otlarga minib showqin-suronlar bilan

mo'g'ullar ustiga tashlandilar. Dushman yana tilka-pora qilinadi va juda katta talafof ko'radi. Qayqur Nuyon ozgina odami bilan Chingizzxon huzuriga kirib boradi. Bu xabarni eshitgach, Chingizzxon dahshatga tushadi. U shu zahotiyog' o'zining barcha kuchlarini jamlab, Sulton Jaloliddinni daf qilish maqsadida shaxsan o'zi otlanadi.

Jaloliddin Chingizzxonning ko'p sonli qo'shninari qarshi tura olmasligini payqab, avval G'aznaga, so'ngra Sind (Hind) daryosiga chekkinadi. Chingizzxon Sind daryosiga yaqinlashganida, Jaloliddinining keyingi kuni daryoni kechib o'tmoqchi ekanligini eshitib, shu kechaning o'zidayoq daryoning kechuvi yo'lini to'sadi. 1221-yil 9-dekabrida Jaloliddinining yarim oy shaklidagi joylashtirilgan hamda qanonlari bilan Sind daryosiga titalgan oz sonli qo'shnini o'rab oladi.

«Sulton Jaloliddin ibn Sulton Muhammad Xorazmshoh, — deb yozadi Mirzo Ulug'bek, — o'zini suv va olov o'rtaida ko'ridi, chunonchi, bir tarafda kesir qilichlar olov sochardi, boshqa tarafda esa qonxo'r daryo turardi. Hech bir tomondan chiqib ketishning iloji yo'q edi. Noiloj jangga kirishadi. Bahodirlik otini kurash maydoniga solib, mo'g'ul-totar kofirlaridan ko'pini halokat tuprog'iga qordi va hech bir kulfatsiz jang qildiki, agar Rustami Doston tirik bo'lganda, unga bo'igan cheksiz muhabbat yopig'ini o'z yelkasiga solgan bo'lar edi. Agar kumushtan Isländiyor bu jangni mushohada qilganda, xizmatida qullik jon-u dili bilan qabul qilgan bo'lardi».

Chingizzxon Jaloliddinining tiriklayin qo'liga olishga farmon beradi. Xorazm bahodiri o'z yigitlari bilan jang maydonida arslonlardek jon berib-jon olardi. Ammo Chingizzxon lashkari hisobsiz edi. Keyin otini birdaniga qaytarib, Sind daryosi tomon choptirdi. Rafiqasi, onasi va farzandlarining dushman qo'liga tushishini istamay, daryoga cho'ktirdi. U 20 fut (1 fut — 30,5) balandlik-dan (6 m 10 sm) o'zini daryoga tashlaydi va bir qo'lida qalqon, ikkinchi qo'lida bayroqni ushib, otta suzib keta boshlaydi. Chingizzxon daryo qirg'og'iga ot chopirio kelib, uning ketidan quvishga shaylangan jangchilarni to'xtatdi.

Daryo qirg'og'iga kelib bu voqeani kuzatib kelgan Chingizxon taajjub va hayraidan yoqasini barnoqlari bilan tutib:

«Otadan dunyoda bunday o'g'il tug'ilmagan... U sahroda sher kabi jangchi, daryoda esa nahang kabi botir. Qanday qilsinki, hali hech kim taqdir bilan hech bir mojaroda teng kela olmagan, lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoyi qadar qarshisida qudrat qo'llini (mardon) ochdi. Mardlik bilan undan (qazo) qutulib bo'lmaydi. Nima qilsin-qilmasin bu ulug' xudo ishidur» va yana «Otaga shunday o'g'li zarurki, u ikki girdob — olov va suv girdobidan ozodlik may-donga chiqqa oldi».

Chingizxon bu dovyurak sarkardaning misli ko'rili-magan jasoratidan lol qolgan holda umprida birinchi marta tan berdi: «Qani edi mening o'g'illarim ham ana shunday bo'lishsa...» alar shermi ko'rganda shoqolga o'xshab dumini qisadurlar. So'ngak talashg'on it kabi bir-birlari bilan g'ajishadurlar! — deya nolirdi o'zicha ichida.

Prezidentimiz I. A. Karimov Xiwa shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i tabrik so'zida shunday ta'kidaydi: «Xorazmshohlar sulolasining eng mashhur vakili Jaloliddin ham o'n bir yil davomida mo'g'ullarning g'arbiy o'ikalarga bosturib kishishlariga to'siq bo'lib turdi, g'anim oldida bosh egmadi, tiz cho'kmadi, vatan deya halok bo'ldi».

Jaloliddinning tarix oldidagi xizmati shundan iboratki, u Chingizxon va Botuning G'arbiy Yevropa, xususan Rossiya, Ukraina, Boltiq bo'yli, Polsha, Chexiya, Turkiya kabi mamlakatlarni bosib olish yo'lidagi mash'um niyatiga to'siq bo'lib turdi. Shu bois, XII va XX asrlar solnomachilar davlat arboblari va sarkardalari — Rashididdin Votvot, Amir Temur, Napoleon, Bagration, Kutuzov, De Gol, J. Neru, V. Karamzin, X. Vamberi, akademik Z. Buniyatov, V. Bartold, A. Tarlelar Jaloliddin jasoratini yuksak baholaganlar.

Jaloliddin Manguberdi haqiqatdan ham o'zbek xalqining milliy qahramoni, iftixori. U vatanimizni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilishda va vatan ravnaci yo'ida jonimi fido qilgan siymlardan bividir.

Tabiat — go'zal olam. Har bir faslga xos go'zallik, moviy osmon, nur sochib turgan, quyosh, kun bo'tishidagi uning tamam oltin nurlari, oy va chaman yulduzar, ko'm-ko'k chaman o'tloq-qir-adirlar, ularda ochiilib turgan rang-barang gullar insonga quvonch baxsh etadi.

Tabiat o'z go'zalligi bilan bolalar ma'naviyati rivojida alohida o'rinda turadi, o'zining tabiiy latofati bilan ularda estetik his-tuyg'u hosil qiladi, bolalar o'zlarining barkamol bo'lib yetishishlari uchun tabiat assosiy manba ekanligini anglab oladilar.

Tabiat va uning go'zalligi inson uchun ilhom, ijod, mehnat manbayidir. Tabiatning bu xislati Hamid Olimjonning «O'zbekiston», Mirtemirning «Yoz», «Kuz», Amir Umariyning «Uzum», Usmon Nosirning «Gullar — chaman bog'larga», «Yur tog'targa chiqaylik», «Dengiz oyla kabi yaltrir», Shuhratning «Oqshomlar», Zulfiyaning «Oltin kuz», «Suluv tong», «Men tongni kuylayman», «Bahor» she'rlarida ham yorqin ifodalangan.

Zulfiya «Bahor» she'rida bahor fasli tabiatga go'zallik, ijtimoiy hayotga farovonlik, insoniyaiga baxt-saodat baxsh etish xislatiga ega ekanligini chuqur his etadi.

Oldiga qo'ygan maqsadga ko'ra, shoira she'rlarini quyidagi tartibda belgilagan:

— bahor payida osmon, nur sochib turgan quyosh yerni go'zallashtiradi;  
— bulbullar erta tongda sayrab, kishini quvontirradi;  
— bahor erta tongda kishlarni mehnatga chorlaydi;  
— kishi o'z qalbida bahorni his qiladi, keksalar ham ishga ottanadilar;

— bahor har safar insonga quvonch bag'ishlaydi.  
She'r o'qilib, ushbu reja asosida suhabat uyuştilrigach, u haqda o'quvchilar egallagan bilim quyidagi mazmunda yakunlanadi.

Demak, yilning bahor fasti g'oyatda go'zal. «Ko'm-ko'k havo (osmon), nur sochib turgan quyosh bahorni kun sayin go'zallashtiradi:

Havo ko'm-ko'k, unda yo'q g'ubor,  
Quyoshi nurin behad sochadi.

*Yerda ajib to 'lishib bahor  
Har kun yangi chehra ochadi.*

Bog'lar, dalalar bahor taqdim etgan gullar bilan bezanadi, maysa o'tlar, daraxtarning zilol barglari kishi chehrasini ochadi:

*Qishdan chiqqan bog'chalar, bog'lar,  
Bezanadi bahor guliga.  
Maysa o'tlar, zilol yaproqlar,  
Ihhom berar kishi diliga.*

Ariq bo'yalarida ochilgan binafscha o'ziga xos olam kashf etadi, bulbullar erta tongda sayrab kishini quvon-tiradi. Erta tong go'zalligi kishi hayolini o'ziga maftun etadi, mayin shamollar uni uyqudan uyg'otadi:

*Ariq labidagi binafscha,  
Kashf etadi o'zi bir bahor.  
Ko'nigillarga beradi nash'a,  
Sayrab bulbul chiroyl'i nahor.  
Kavolingu maftun etadi,  
Go'zal oppoq feruza tonglar.  
Uyqularmi olib ketadi,  
Alaqanday mayin shamollar.*

Daralar yashnaydi, «Qir ham zavqqa to'ladi», zumrad dalalar mehnat bilan «Kundan kunga dilbar bo'la-di». Quyosh chiqishi bilan o'rnidan shoshilib turgan qizlar bahor kabi ochilib ishga chiqadi. Tongda mehnat zavqli bo'ladi. Tong kabi kulgan o'zbek qizi ishga chiqadi, yer haydash mashimasini boshqaradi:

*Bahor ko'rib yashmar daralar,  
Qir ham ish zavqiga to'ladi.  
Mehnat bilan zumrad dalalar  
Kundan kunga dilbar bo'ladi.  
Ishga chiqar, sevib shoshilib,  
Quyosh bilan teng turgan qizlar.  
Ishlar bahor kabi ochilib,  
Yonar baxmal loladay yuzlar.*

*Bahor, yoshlik ishga tushar tez,  
Tongda mehnat zavqli bo'ladi.  
Baxtili tongday kulg'an o'zbek qiz,  
Mashinaning rulin buradi.*

Oishi bilan yetilgan tuproq qizga ko'ksini ochadi. Oltin kuzda ochilgan oppoq hosil uning ko'zini erkalyadi:

*Oishi bilan yetilgan tuproq,  
Oiz qo'liga ochar ko'ksini.  
Oltin kuzda ochilgan oppoq  
Hosil erkalyadi ko'zini.*

Kishilar yuraklarida, ko'zlarida, yerda, ko'kda bahor yuradi, «Hatto sochi oqargan chollan» bahor kabi yashnab ishga kirishadi.

*Yuraklarda, ko'zlarda bahor,  
Yerda, ko'kda bahor yuradi.  
Hatto sochi oqargan chollar,  
Bahor kabi yashnab kiradi.*

Demak, har gal gullar sochib yer-u ko'kni bezatish — bahor faslining odati, asosiy xislati. Shu xislat tufayli:

*Gul yozadi bahordan go'zal,  
Shod insomning hur saodati.*

Ya'ni, bahor inson baxt-saodatini yanada go'zal-lashtiradi. Bu shoiraning asosiy fikri, g'oyasi. Zulfiya she'mring to'qqizia qismida bahor xislatlarini mantiqiy izchilikda integratsiyalaشتirib, asosiy g'oyani bayon etgan.

U bahor fasli xislatlarini tilimizda ishlataladigan «zilol, chiroyl'i, go'zal, mayin» so'zlar, «ajib to'lishib», «zumrad dala», «dalalar dibar», «loladay yuzlar», «go'zal, shod inson» kabi iboralar bilan ifodalagan. Tasviriy san'at odamlarni va tabiatni asli holatida tasvirlaydi, ularga joniلىk baxsh etadi, odamning xarakteri va ichki mohiyatini, tabiatining tabiiy go'zalligini,

boyligini namoyon etadi. VI sinifa Zulfiyaning ushbu «Bahor» she'ini o'rganishda mashhur musavir O'rol Tansiqboyev yaratgan ajoyib tasviriy san'at namunalari dan biri — «Jonajon o'ika» rasmini namoyish etib, o'quvchilarni uning mazmuni bilan tanishitirish kerak.

Zero, Zulfiyaning she'ri bilan O'rol Tansiqboyevning ushbu asari o'rtasida mazmunan uyg'unlik bor.

Rassom O'rol Tansiqboyevning «Jonajon o'ika» deb atalgan rasmida O'zbekistonning tabiat, quyoshi, sof havosiga xos yorqinlik aks ettirilgan. Quyosh tepalik cho'qilarni, o'tarni zarrin nuri bilan o'ragan. Atrofda qizg'in hayat boshlangan. Qizlarning och pushti, zangi kiyimlarga o'raltan chiroyli qomatlarini quyosh o'z nuri bilan yoritmoqda.

Musavvir rasminni shu mazmunda yaratish orqali inson bilan tabiat o'rtasidagi uyg'unlik — birlikni aks etirgan.

«Bahor» she'ini o'rganishda ushbu rasmdan ko'rgazma vositasi sifatida foydalananish o'quvchilarning bahor inson baxt-saodatini yanada go'zallashtiruvchi xislatga egaligini chuqr anglab olishlarida, ularda tabiat go'zalliga havas, uni yanada go'zallashtirishga qiziqish hissini rivoj toptirishda muhim omil bo'ladi.

### III. DARSQA TALAB

#### Hozirgi davr darsiga didaktik talablar

- ta'lim vazifalarini va ularning tarbiyaviy vazifalar bilan aloqada bo'lishini aniq belgilab olish, darslarning umumiyligi ta'lim tizimida tutadigan o'rmini aniqlab olish;
- o'quvchilar tayyorligini hisobga olgan holda, o'quv dasturida qo'yilgan maqsadga ko'ra, dars mazmunini belgilab olish;
- o'quvchilarning dars bosqichlarida bilimni o'zlashtirish, bilish mahoratining shakllanish darajasini hisobga olish;

- dars jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish, bilimi egallashda ularda mustaqillikni oshirishga yordam beradigan metod, yo'l va vosita-larni belgilab olish;
- darsda barcha didaktik prinsiplardan foydalanish;
- o'quvchilarning o'qishi samarali bo'ishi uchun sharoit yaratish.

#### Darsga psixologik talab. Darslarning o'zaro psixologik bog'lanishi

- aniq o'quv fanini o'rganishda va aniq darsda o'quvchilar rivojlanishini loyihalash tirish;
  - butun dars davomida oldin o'tilgan mavzuni o'rganishda erishilgan yutuqlar natijasini tahsil qilishda psixologik vazifalarni hisobga olish;
  - ayrim vositalarning psixologik-pedagogik ta'sirini nazarda tutish.
1. Dars uslubi:
    - dars qurilishi va mazmunining rivojlanayotgan o'qitish prinsiplariga mosligini aniqlash;
    - topshiriqlarning o'quvchilar xotirasiga va fikrlashiga mosligi;
    - o'quvchilarning o'zlashtirish va ijodiy faoliyatini hajmini aniqlash;
    - o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, tahsil qilish va baholash.
  2. O'qituuchining o'z-o'zini boshqarishi:
    - darsga tayyorligida eng muhimi, dars boshlanishida va uni o'tishda ishchanlik faoliyatni namoyon etish;
    - o'quvchilarning faoliykda va fikrlashda mustaqilligini ta'minlaydigan yo'l va shakllarni rejalash tirish;
    - psixologik maqsadni chuqr his qilgan holda amalga oshirish;
    - darsda o'quvchilarning turli ko'rinishda bo'lgan ijodiy ishlaridan (ish maqsadi tushuntirilgan, tayyorlan-

gan matn, natijalangan va tarbiyaga solingen ish, ishlab chiqigan va rejalashtirilgan) foydalanish.

O'quvchilarida ongli faoliyatni yaratish:

1. o'quvchilarining mustaqil fikrashi va tasavvur qiliishi uchun sharoit yaratish;

— o'quvchilarida o'rganiladigan soha va hodisalar hosil qilish yo'llarini rejalashtirish;

2. Yangi bilim va bilishni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarida fikrash va tasavvur qilish faoliyatini hosil qilish:

— o'quvchilarida bilim va bilishning shakllanish darajasini aniqlash;

— o'quvchilarida fikrash va tasavvur qilish faoliyatini hosil qilishda psixologik qonunlarga suyanish.

3. Ishlar natijasini mustahkamlash:

— ko'nikmalarни mashq yo'li bilan shakllantirish;

— oldin o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarни yangi ish sharoitida amalga oshirishga o'rganish.

O'quvchilarining tuyushishi:

— o'quvchilarining o'qishga munosabati, o'zaro bir-lashuvi va aqliy rivojlanishi.

O'quvchilarining yosh xususiyatini hisobga olish:

— darsda o'quvchilarining shaxsiy va yosh xususiyatini hisobga olish;

— darsni kuchli va bo'sh o'quvchilar hisobga olin-gan holda o'tkazish;

— kuchli va bo'sh o'quvchilariga bilim darajalarini hisobga olgan (tabaqalashtirilgan) holda munosabatda bo'lish.

Dars tozaligiga (gigiyenaga) talab:

— sinf xonasining issiq-sovuqligi;

— xonaning fizik-ximik xususiyati;

— o'quvchilarining charchash va toliqishdan saqlanish kerakligini ogohlantirish;

— ko'rsatayotgan faoliyatini turli shakida namoyon ettirib borish;

— o'z vaqtida bir-ikki daqiqalik jismoniy mashq o'tkazish;

— o'quvchilarining o'qishga, ishga to'g'ri munosabatda bo'lishi kuzatib borish;

— sinf jihozlari (parta, stol, stul)ning o'quvchilar yoshiga mosligini, ularning o'sib borishini kuzatib borish.

Darsni o'tkazish texnikasiga nisbatan talab:

— dars o'quvchilarida o'qishga qiziqish, bilingma ehtiyoj hissini uyg'otadigan tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lishi kerak;

— dars tezligi va vazni bir me'yorda, o'qituvchi va o'quvchining xatti-harakati maqsadga muvofiq bo'lishi kerak;

— darsda o'qituvchi va o'quvchining munosabati, muloqoti o'zaro uyg'unlikda bo'lishi kerak;

— dars maktabda o'matilgan tartib-qoidaga rioxaya qilingan holda bo'lishi kerak;

— o'qituvchi o'quvchining bilimni faol o'rganishini ta'minlashi kerak.

### Darsning tuzilishi

Darsni rejalashtirish bosqichlari va o'qituvchining unga tayyorlanishi;

— mavzu yoki uning qismlari bo'yicha dars tizimini ishlab chiqish;

— dastur, darslik, metodik qo'llanma va yordamchi adabiyotlar asosida dars vazifalarini aniqlab olish;

— dars mazmuniga muvofiq material tanlash, uni didaktik tarzda ishlab chiqish, mazmunan tugallangan qismlarga bo'lish;

— o'quvchi tushunadigan va eslab qoladigan asosiy materialni ajratish;

— dars tizimini aniqlash va unga mos metod va priyomlarni belgilash;

— mazkur materialning boshqa o'quv fanlari materiali bilan aloqasini aniqlash, o'quvchilarida yangi bilim va bilishni shakllantirishda bu aloqadan foydalanish;

- o'quvchilarning darsning barcha bosqichlarida ko'rsatilgan faoliyatlaridan yangi bilimi va bilishni egallashlarida foydalanishi;
- darsda foydalilanligan didaktik vositalarni (kino, diafilm, rasm, xarita, jadval va qo'shimcha adabiyotlarni) aniqlash;
- darsda o'quvchilarning mustaqil ravishda bajargan ishlarning mazmuni, shakli va hajmini aniqlash, mustaqil ishish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- darsda va uyda egallagan bilimlarini mustahkamlash yo'l va shakllarini aniqlash va ularni umumlashtirish va tartibga solish;
- uya beriladigan vazifa va topshiriqlar mazmuni, hajmini va shaklini, metodini aniqlab olish;
- mavzu bo'yicha sindan tashqari ishlarni rivojlantrish.

— o'quvchilarning darsning barcha bosqichlarida ko'rsatilgan faoliyatlaridan yangi bilimi va bilishni egallashlarida foydalanishi;

— darsda foydalilanligan didaktik vositalarni (kino, diafilm, rasm, xarita, jadval va qo'shimcha adabiyotlarni) aniqlash;

— darsda o'quvchilarning mustaqil ravishda bajargan ishlarning mazmuni, shakli va hajmini aniqlash, mustaqil ishish qibiliyatlarini rivojlantirish;

— darsda va uyda egallagan bilimlarini mustahkamlash yo'l va shakllarini aniqlash va ularni umumlashtirish va tartibga solish;

— uya beriladigan vazifa va topshiriqlar mazmuni, hajmini va shaklini, metodini aniqlab olish;

— mavzu bo'yicha sindan tashqari ishlarni rivojlantrish.

## XULOSA

Unumiy o'rta maktab o'qituvchilari uchun tayorlangan ushbu qo'llannmada ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash omillari Toshkent shahridagi 20, 143, 273-maktablarda o'tkazilgan kuzatishlar, o'qituvchilar bilan bo'lgan multoqotlar natijasi siyatida yortildi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash ta'lim va tarbiyaning uzyiylikda bo'lishida, o'quvchilarning insonparvar, vatanparvar bo'lib, manaviy-axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan barkamol shaxs sifatida yetishuvvarida muhim ahamiyatga egadir.

Fanlarni integratsiyalash muammosini o'rganish, tadqiq etish, muammo bo'yicha joylarda bo'lgan uchrashuvlarda shu narsa ma'lum bo'idiki, fanni va ilmiy bilimi integratsiyalash jarayonining negizi moddiy olamning birligi, ya'ni tabiat, jamiyat va uni anglashning o'zaro uzyiyligidir.

Fanlar o'rtasidagi uzyiylik, o'zaro bog'liqlikning rivoji, bu sohada axborot vositalarining muhim ahamiyat kasb etishi natijasida ta'lim va tarbiyada erishilayotgan yutuqlar tabiat, jamiyat, texnika sohasi — moddiy olamda ham namoyon bo'imroqda. Bu o'zaro ta'sir rivoji har bir fanning ichki tabiiy rivoji uchun ham zarur omil bo'imroqda. Fanlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va fanlar tarkibidagi o'ziga xos qonuniyatlarining yuzaga kelishi ularning mayjud tuzum bilan aloqadorligiga yorqin dalildir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bu qonuniyatlaridan xabardor qilinishi, o'quv fanlarni integratsiyalash — ularda bilimga, fanlarni o'rganishga qiziqish hissini oshirdi, muhimi, dunyoqarashlarining kengayishiga, fan sohasidagi dunyo voqealaridan doimiy sur'atda xabardor bo'lishga qiziqish uyg'otdi.

**Fazilat nima?**

Fazilat butun go'zal axloqning insondagi majmuidir. Fazilat shafqatlari bir yo'ldoshdirki, shu yo'ldosh bilan birga bo'lgan odamning yonidan bir minut ham ajralmaydi, dushmanlarga qarshi undan ham quvvatlari do'st va yordamchi bo'imaydi.

Bir donishmand insoniy fazilatni o'n uch qisnga ajratgan:

1. Sukut – o'zingga va boshqalarga foyda yetkazadi-gan so'zarni so'zla, bo'imsa sukul qil.
2. Intizom – har ishga bir vaqt, har narsaga bir o'rinn tayin qil, tartibli, intizomli bo'l.
3. Riyozat – kerak bo'lgancha yeb-ichib, nafsingdan g'olib bo'lishga g'ayrat qil.
4. Sabot – qo'lingdan kela olishiga ko'zing yetgan ishga kirish, boshlagan ishingni tamom qilishga bel bog'la.
5. Idora – qo'lingga kirgan pulni o'zingga, oilangga va boshqalarga foydasi tegadigan yerlarga sarf qil, yaxshi idora qil, isrofgarchilikdan saqlan.
6. Say'y – eng buyuk xazinalarning kalliti daqiqalar ekanini angla, vaqtinagi bekorga o'tkazma, sa'y-g'ayrat qil.
7. To'g'rilik – har ishingda, so'zingda to'g'ri bo', to'g'ri ishla, to'g'ri so'zla, yolg'on va har xil egriliklar-ning asiri bo'ima.
8. Haqgoniyat – insof va adolat bilan ish qil, haqliki nohaqlik bilan aralashitirma.
9. Poklik – qo'lingda bo'gan har narraning pok, toza bo'lishiga dieqat qil, iftoslik, chirkinlikdan saqlan.
10. Sabr – mabodo boshingga og'irililar tuslsa, chida, sabrsizlik qilma, og'iriklarni yo'qotish uchun g'ayrat qil.

11. Iffat – nomusingni hayotingdan ortiq va muqaddas bil. Uni doim muhofaza qilishga, qo'riqlashga g'ayrat qil.
12. E'tidol – har ishda o'rtacha yo'l tutishiga harakat qil. «ishlarning xayrlisi o'rtacha bo'lgan ishdir» degan hikmatli so'zni unutmata.
13. Tavoze – o'z izzat-nafsingni yo'qotma, tubanlikni ixtiyor qilma. Tavozeli, yumshoq ko'ngilli bo'l.

**Eng ulug' fazilat**

Qadim zamonda bir mo'tabar odamning uch o'g'li bor edi. Bir kuni ularni o'z huzuriga chaqirib olib:  
— O'g'illarim, sizlarni sinamoqchiman, bir oy sa-vohat qiling. Shu bir oylik umringizni xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf eting. Qaysi biringizning qilgan yaxshilingiz eng ulug' fazilat kasb etsa, bar-mog'imdag'i mana shu juda qimmatbahko uzukni beraman, — dedi.

O'g'illari har tarasga tarqalib, sayohatga chiqib ket-dilar. Bir oy sayohat qilib yurib, yana otalarining huzuriga qaytib keldilar. Ota katta o'g'lidan so'radi:  
— O'g'lim, shu bir oy ichida qanday eng ulug' fazilati yaxshilik qilding?

— Otajon, bir kuni tanho o'zin bir bog' ko'chasiдан o'tib ketayotsam, bir yerda juda ham qimmatli olmos tushib yotgan ekan. Uni olib darhol tegishli ma'murlarga topshirdim. Ma'murlar boshlig'i menga tashakkur aytilib, qo'llimga mana shu taqdирnomani yozib berdi, olmosning egasini toptirib unga topshirdi. Shu qilgan ishim to'g'riligimga bir dalil, shu harakatim eng ulug' fazilat emasmi, — deb javob berdi katta o'g'li.

Otasi aytdi:

— Juda to'g'ri ish qilgansan, o'g'lim, vijdoniy vazifangni ado etgansan. Lekin olmos sening xususiy mulking emas-ku.  
Keyin o'rancha o'g'il so'zga kirishdi:

— Men bir kuni katta ariq katoridan ketib bo-

rardim. Shu choqda bir yosh bola suvga tushib ketib,

halok bo'lish xavfi ostida ekamini ko'rib qoldim.

Darhol o'zimni suvga tashladim, ko'p mashaqqat

chekib bolani suvdan olib chiqdim. Shu bilan uni

o'llimdan qutqazib, ota-onasiga eson-omon top-

shirdim. Ota-onasi mendan ko'p minnatdor bo'lib,

haqimga duoyi xayr qildilar. Hayotim qo'rquinch osti-

da qolsa ham yosh bolani o'llimdan qutqazish uchun

qilgan shu harakkatim bilan mukofotiningza loyiq

bo'isam kerak, deb o'ylayman.

Otasi o'rtancha o'g'lining qo'llini ushlab:

— Ofarin, o'g'lim. Seni tabrik qilaman, faqat shu

go'zal ishing tufayli qalbing zavq-shavq bilan to'lganini

his etgansan, shuning o'zi katta mukofot emasmi? —

Keyin kichik o'g'li otasiga ta'zim qilib aytди:

— Otaion, menga doimo dushmanlik nazari bilan  
boqib, zarar yetkazib yurgan bir odam bor. Men unga  
hech yomonlik qilmagan bo'lsam ham, u payimda yu-  
radi, hatto meni o'dirish uchun fursat kutadi. Kecha  
dushmanning juda past jar yoqasida uqlab yotganini  
ko'rdim. Agar uyqusirab bir yondon ikkinchi yonga  
ag'darilsa yoki qattiqroq tovush chiqarib uyg'otilsa, tu-  
risiga harakat qilib jarga qulab tushishi mumkin edi.  
Men tovush chiqarmasdan, sekingina yurib uning yoni-  
ga bordim. Juda ehtiyyotlik bilan uni ushlab, asta-sekin  
o'z tomonimga torta boshladim. Ancha beriga kelib  
xavf-xatardan qutulgandan keyin ruhim ko'tarildi, shod-  
lanib yo'llimda davom etdim.

Otasi o'g'lining bu ishidan, olivjanobligidan shod-  
lanib ko'ziga yosh oldi, uni quchoqlab, yuz-ko'zidan  
o'pib:

— Bor bo'l, o'g'lim, yasha, umring uzoq bo'isin!  
Mukofotimi olishga sen haqlisan, chunki dunyoda eng  
ulug' fazilat yomonlikka yaxshilik qilishdir, — deb qim-  
matli uzugini o'g'lining barmog'iga kiygizdi, uning  
haqiga duo qildi.

Bayt:

*Otang erdir, sen ham erdek qiliq qil,  
Yomonlik aylaganga yaxshilik qil.*

### O'n besh nasihat

Bir donishmandning o'z farzandiga qilgan nasihat-

lari:

1. Yaxshi vatanparvar bo'lish, hayotda muvaffaqiyat

qozonish, jisman va ruhan mukammal bo'lish uchun

mehmatni sev, ish odami bo'i!

2. Yalqovlikdan uzoqlash, g'ayratli bo'l, vujudingni

harakaqaga bag'ishla, timma, turish, olg'a bos!

3. Ehtiyyot bo'l, hamma ishingda tartib va intizomga

rioya qil.

4. Senga jamiyat tomonidan topshirilgan vazifani

bekam-u ko'st ado qil.

5. Sharafing, nomusing va hayotining qo'riqla,

boshqalarning ham sharaf va nomuslariga hummat va

rioya qil.

6. Haqiqatni sev, yurish-turishingda sodda va tabiiy

yo'ini tut.

7. Samimiy, pok qalbli, vijdonli va haqshunos bo'l.

8. Muloyim, lutfor, marhamatl va do'stparvar bo'l.

9. Mutassib (fanatik) bo'ima, hur fikrli bo'l.

10. Mutolaa va tekshirish bilan aqilingni, zehningni,  
fahm va idrokingni tarbiyat qil, o'sir.

11. Qanoatl, hammaga mehribon va g'amxo'r bo'l.

12. Hurmatga sazovor bo'igan kishilar va narsalarga

ehtirom qilishni unutmra.

13. Mardlik, jasorat va shijoatni o'zingga shior qilib ol.

14. Sharaf va nomusingga dog' tushirish ehtimoli

bo'lgan har turli zavq-safodan kech.

15. Go'zal ahloqning matonati, hissiyotining oly-

jumobligi bilan vujudingga sihat va latofat bag'ishla.

## Ilmi bo'lish

undan ziyodroq shodlik va xurramlik yetishudir. Agar bir kishiga yomonlik qilsang, unga naqadar ranj yetsa, sening ko'nglingga ham ul miqdor tanglik yetishur. Demak, bu jahonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, al-batta, yetkusidir. Mening bu so'zimga munkir bo'l-mag'ilki, har kishi butun umrida bir kishiga yaxshilik yo-yomontlik qilg'on bo'lsa,, bu haqda andisha qilsin, mening bu so'zim rostdur. Bas, agar qila olsang hech kishidan yaxshilikni darig' tutmag'il, yaxshilikning soy-dasi bir kuni ro'yobga chiqar.

Ey farzand, hargiz yaxshilik qilmoqni tark etmag'il, hamisha yaxshilikni xaloyiqqa ko'rguzg'il, boshqa til bila so'zlamag'il. Boshqa ko'ngil bila fikr etmag'il, bug'dovni ko'reguzib arpani sotmag'il va barcha yerda o'zingdin dod beg'il. Har kishikim o'zidin dod bersa, dodi mustag'ni bo'lur. Agar g'amming bo'lsa, g'am va shodlig'i bor kishining yonida aytg'il va shodlikni noshod kishilarning qoshida zohir qilmag'il, har turluk ish uchun diltang bo'lmag'ilkim, bu ish yosh o'g'lonning ishidur.

Bilgilki, donishmandlarning oxiri g'am bo'lg'on shodlik bilmashlar va oxiri shodlik bo'lg'on g'anni g'am hisob qilmashlar. Noumidlik vaqtida umidvorroq bo'l va noumidlikka bog'liq qilmag'il. Hech kishining mehnati-ni zoye qilmag'il va har kishining holig'a loyiq haqini-bajo kelting'il. Xususan, o'zingning yaqin qarindosh-laringa imkon boricha yaxshilik qil va o'zingning qabila va urug'ing qarilariini izzat, hurmat qil, lekin ularga butkul muxlis bo'lmag'il. Ularning hunarimi ko'rsang, ayblariga ham qarag'il. Agar begonadan xavfsiz bo'lg'an sang, mazkur xavfsizlik davni o'zing saqla, xavfsizlikni xavfiliik gumon qilmag'il. Gumon qilib zahar ichish nodonlikdan yomonroqdur.

Xalqning oz hunarini ko'p ko'rg'il, haqqini yaxshi bilg'il. Behunarlikdan, bexiradlikdan yaxshi ot va yaxshi taom qo'lg'a keltnra olsang, behunat, behirad bo'lg'il, yo'q ersa hunar o'rgang'il. O'rganmak, eshitmakdin nomus qilmag'il, to hijolat va pushaymonlig'din qutul-g'aysan.

Ilm o'rganish eng mo'tabar ishdir. Ilm odamning qadini oshiradi, ilmi kishilar dunyoda eng izzatl, bo'ladilar. Ilm dunyoda odamlar uchun eng sevimali, eng shirin ne'matdir. Shunday ekan, siz dunyoda ro-hatda yashashni istasangiz, hamma meni sevin de-sangiz, bor kuchingiz bilan o'qishga, ilm olishga g'ayrat qiling.

Bolalar! O'qing, darsga ixlos qo'yib o'qing, foydali kitoblardan foyda va lazzat olish uchun o'qing. Kishining eng aziz, eng shirin va eng qimmatli vaqt yoshlik davridir. Shunday qimmatli yoshligingizni, aziz umringizni foyda-siz ishlarga sarf qilmang. Bir donishmand:

"Ko'rkan xulq ikki narsa bilan, ya'ni ilm, adab o'rganish va yomon ishlardan saqlanish bilan topiladi", degan.

Bayt:

*Ilmu fan nuri zimiston dil uyini etar*

*Ilm otiga minsar har kim maqsadiga tez yetar,*

## Ota-onaga hurmat

Bolalar! Ota-onani hurmat qilish, ular oldida adab bilan turib, xizmatlarini bajarish hammamizing vazi-famiddir.

Ota-onalaringizni ranijitadigan so'zlar aytishdan, ko'ngillarini qoldiradigan ishlardan doimo saqlaning. Aqli bolalar ota-onalarini hurmat qilib, kuchlari yetganicha ular xizmatida bo'ladiar. Yomon so'z aytishdan, achchiqlanib qarashdan o'zlarini saqlaydilar. Ota-onaga qanday xizmat qilish haqida sizlarga kichik bir misol keltiramiz.

Bir kishi kechasi uyqudan uyg'onib o'g'lidan "Suv ber!" deb so'radi. O'g'li suv olib kelguncha, otasi yana uxlab qolgan edi. O'g'li: "Otam balki yana uyg'onib suv g'aysan.

so'rar", deb uxlamasdan otasining uyg'onishini kutib tong otguncha o'tirdi.

Mana, bolalar, adabli, tarbiyali bola shunday bo'la-di. Ota-onalaringizni izzat-hurmat qilishga, ularning olqishlarini olishga g'ayrat qiling. Har bir bola ota-onasi qilgan nasihatlarni jon qulog'i bilan eshitib, nasihatlariga har vaqt amal qilishi kerak. Ota-onasiga ozor berib, ularning dillarini og'ritadigan bola baxtli bo'lmaydi.

Bayt:

*Istasangkim yetmasin senga balo,  
Ota-onanga qilma jafo.*

Mashhur olimlardan biri aytadi:

— Har narsani ko'rishga va so'rashga qiziqish — yosh bolalarning eng yaxshi xosiyatidir. Bu esa ularning ilmga bo'lgan havasları negizidir. Agar yosh bolalar biror narsa haqida so'rasha, "jim o'tir, og'zingni yum, sen bilmaysan, har narsani so'rayerverma", deb uni so'rashdan to'xtatmang, bergen savollaridan kulmang, bolaga ochiq yuz, muloyimlik bilan aniq-ravshan javob bering. Agar shunday qilmasangiz, bolaning ilmga bo'lgan havasini to'xtatgan bo'lasiz.

Mashhur tabiblardan Husayn Ramziy aytadi:

— Inson uchun eng aziz va muhitaram bo'lgan narsa kuchli va sog'lom badandir. Sog'lom badan juda qimmatli narsadirki, inson u bilan maishatini ta'min etadi. Sog'lom badan bir ulug' xazinadirki, sanoat ahllari faqat uning yordamli bilan xizmat qilib jamiyatga zo'r manfaat yetkazadilar.

Sog'lom badan qimmatli bir sarmoyadirki, qalam ahllari unga tayanib jamiyatni ta'lim va tarbiya etish yo'iida foydali asarlar vujudga keltiradilar. Sog'lom badan ulug' bir quvvatdirki, uning ko'magi bilan muzafer qo'shinlar aziz Vattanlarini dushmanidan qo'riqlay oladi.

Olim, fozillardan Hurramiy aytadi:  
Bir qariya har vaqt yoshlarga:

— Bolalarim, yoshlikni g'animat biling, faqat o'yin, kulgi, kayfi-safo bilan yoshlik davringizni zoye etmang, o'qing, o'rganing, ilmli, hunarli bo'ling. Agar yoshlik davringizza o'zingizni tutib qolmasangiz, keyin qattiq pushaymon qilasiz, lekin foyda bermaydi, — deb qattiq nasihat qilardi. Shu hurmatli cholning nasihatlariga amal qilgan yoshlar baxtli-saodatlil bo'ldilar.

Donishmandlar tubanda fazilatlar deb topganlar. Ryozat — nafsingni tiy, ortiq darajada yeyishdan, ichishdan saqlan. Sukut — o'zingga ham, boshqalarga ham hech bir foydasi tegmaydigan oldi-qochdi so'zlashdan chekil, jim bo'l.

Intizom — ishlarining tartibli, intizomli bo'lsin, ishingni o'z vaqtida bajar, kechiktirma. Maqsad — bir ishga kirishmoqchi bo'lsang eng awal yaxshilab o'yla, shu ishdan kutgan maqsading nima ekanini yaxshi tushun, bir qaroga kel. Keyin qaror-lashtirgan ishingni hech bir kamchiliksiz ado qil.

Tejash — iqtisod, ya'ni tejashga riyoja qil, o'zingga va xalqqa foydasi tegmaydigan yerlarga pul va mol sarf qilma.

### Baxt saroyi

Qish kuni. Kech bo'la boshlagandi. Bir yigit yo'ida ketarkan, unga katta bir o'rmon ichidan o'tishga to'g'ri kelib qoldi. O'rmon qorong'i, qalin daraxtlar bilan qoplangandi. Yigit o'rmon ichida yura-yura yo'lini yo'qotib qo'ydi, adashdi.

Hushdan ketib yiqildi. Birozdan keyin ochlik va sovuq ta'siri bilan hushiga kelib ko'zini ochdi-yu, yonda uch kishining turganini ko'rib, qo'rqib, nima qilishini bilmay hayron bo'lib qoldi. Bulardan bittasi ipak ko'ylik kiygan, beliga oltin kamar bog'lagan, ikkinchisi qora ko'ylik kiygan, qora kamar bog'lagan va uchinchi esa favorang ko'ylik kiygan, qayishdan kamar bog'lagan odam edi.

Bu kishilarning hammasi birdań:

— Ey yigit, sen bu yerda nima qilib yuribsan? — deb so'radilar. Yigit titrab:

— Bekorchiman, hech bir ish qilmayman, o'rmon-dan o'tayotib adashib qoldim, — dedi. U kishilar:

— Ayt, bizzdan nima istaysan? — deb so'rangan edilar, yigit bu qo'rqinchli o'mondan quitqazishlarini o'tindi.

U kishilar yigitga:

— Senga bir yo'i ko'rsattuvchi kerak ekan, qani birimizni tanlab ol, qaysi birimiz senga yo'boshchilik qilaylik? — dedilar.

Yigit o'yab-o'yab, niroyat ipak ko'yjak kiyagan beliga oltin kamar bog'lagan, boy savdogar qiyofali kishini tanladi. U kishi kulimsirab yigitini olib ketdi. Yurdilar-yurdilar, oxiri yigit charchab to'xtab qoldi. U kishi:

— Nega to'xtab qolding? Qani yur, hali ancha yurishimiz kerak, — degan edi, yigit yurishga majoli qolmagamini aytdi. Boy savdogar qiyofali kishi yonidan katta o'tkir pichoq chiqarib:

— Mana shu o'tkir pichoqni ol, deb uni yigitning qo'liga berdi.

Yigit hayron bo'lib undan:

— Menga nega pichoq berdingiz? Bu pichoqni nima qilaman? — deb so'rangan edi, u:

— Mana bu chet tomondagi yo'ldan hozir otga min-gan bir kishi yetib keladi. Sen u kishiga hujum qilib o'dir. Keyin uning otiga minib, o'mondan chiqib ketasan, — dedi. Yigit u kishidan:

— Siz kim bo'lasiz, otingiz nima? — deb so'rangan edi, u kishi aytdi:

— Mening otim yomonlik, kel, men ko'satgan yo'il bilan yur, shogirdim bo'1.

Yigit yomonlar ustodining yaramas so'zlarini eshitib, juda ham achchig'landi. Qo'lidagi pichoqni irg'itib yu-borib aytdi:

— Ket, yo'qol, mai'un! Meni yaramas yo'iga bosh-lamoqchi bo'lasan, sen ko'rsatgan yomon yo'iga yur-

mayman, — deb baqirdi, o'zidan ketib behush bo'lib yiqildi.

Bayt:

*Yomonlarning sira payvandi bo'ima,  
Havo birla havasning bandi bo'ima.*

Yigit birozdan keyin hushiga kelib, qolgan ikki kishi uning yonida turganini ko'rdi. Darhol qora qora kiyim kiy-gan, qora kamar bog'lagan kishiga murojat qilib, shu qorong'i o'mondan chiqishga yordam berishini so'radi. U kishi yigitning iltimosini qabul qilgach, ikkovlari yo'iga tushdilar.

Ancha yo'1 yurib, bir jar yoqasiga yetib keldilar. Yigit ortiq darajada charchagan, yurishga madori qol-magan edi, o'sha yerda to'xtab, dam olmoqchi bo'ldi. U kishi yigitning to'xtab qolganini ko'rib: "Nega to'xtab qolding? Yo'limiz hali uzq. Dam olishni istaysam? Xo'p, dam ol, mana shu baland yerdan o'zingni tashla, pastda rohatlanib dam olsan", dedi. Agar yigit o'zini jarga tashlasa parcha-parcha bo'lib ketardi.

— Sen kimsan? Oting nima, bu qanday taklif, mening o'llishimni istaysam? — deb g'azablanib so'zladi yigit. U kishi:

— Mening otim — umidsizlik, sen ishsiz, yalqov yigitga o'xshaysan, hayotta umidsizlik bilan qaraysan. Xuddi menbop bir yigit bo'iganing uchun senga yo'i ko'rsatdim, kel, taklifimni qabul qil, — deb javob berdi.

— Ket, yo'qol, sening ko'rsatgan yo'ningga muhtoj emasman, men yashashni istayman, yalqov ham emas-man. Menga chin yo'lni ko'rsatgan oliyjanob odamlar izidan bormoqchiman, — dedi yigit.

Bayt:

*Noumid bo'ima, o'g'il, g'ayrat bilan ishga kirish,  
Bo' umidi, immay ishla, izzat, obro ga erish.*

Yigit birozdan keyin ko'zini ochib, u — bu yoqqa

qaragandi, havo rangli kiyim kiygan, beliga qayish kam-

mar bog'lagan bir kishi uning yonida turganmini ko'rdi.

Avvalgi ikki kishidan yaxshilik ko'rmay yurak-bag'ri

kuygan yigit bu uchinchi kishiga ham ishonmay, uning

yonidan dochib ketmoqchi bo'idi. Lekin u kishi mu-

loyim tovush bilan:

— O'g'ilim,

menden qo'rhma, beri kel, men semi bu

qo'rinchli o'mondan olib chiqib to'g'ri yo'ini ko'rsa-

taman, — dedi.

Yigitning ko'ngli orom oldi, kishi yoniga kelib, sa-

lom berib ko'rishdi, so'ngra yo'iga tushdilar. Tong ham

ota boshlagan edi. Haligi yo'boshchi kishi yerda yotgan

uzun va yo'g'on daraxt shoxini ko'rsatib:

— Bu shoxni yelkangga qo'yib ol, — dedi.

Yigit shoxni ko'tarib olib yelkasiga qo'ydi. Biroz

yurganlardan keyin qo'rinchli o'mondan chiqib, katta

va ravshan yo'iga tushdilar. Yo'ning bir tomoniga

solingan buyuk va go'zal bir saroy ko'rindi. Haligi

odam:

— O'g'ilim, bu o'rmonni va bu daraxt shoxini unut-

ma, shoxni yerga tashlab, saroyga kir, barcha maqsading

hosil bo'lib, baxti umr kechirasam, — dedi va o'zi

o'rmon tomonga qarab keta boshladi.

Yigit shoxni yerga tashlagan edi, shox yerga tushib

bir qop oltin bo'lib sochilib ketdi. Yigit juda ham

hayratda qoldi. Haligi kishini chaqirib:

— Og'ajon, to'xtang, ochiq, ravshan yo'iga sol-

dingiz, siz kimsiz? Otingiz nima? Bu qanday

saroy? — degan edi, u kishi o'rmon ichidan baland

ovoz bilan:

— O'g'ilim, mening otim — mehnat, laqabim

say'-g'ayrat. Bu saroy «Mehnat saroyi» deb ataladi.

Bu go'zal saroyga kirib, chin ixlos bilan ishla, sa'y-

g'ayratni qo'ldan berma, mehnating tufayli azziz

mukarram bo'lasan, — deb javob berdi. Yigit sevinib

«Mehnat saroyigaga kirdi, unga baxt-u iqbol eshik-

lari ochildi.

Bayt:

*Baxtu iqbol, saodat, ey o'g'il, mehnatadir,*

*Say'g'ayrat birla har kim ishlasa, rohatadir.*

### Nomus boylikdan afzal

O'tgan zamonda Karim ismli bir kishining sha-

hardun tashqarida bir parcha yeri bor edi. Karim har

yili shu yerga ekin ekip, undan olgan hosilga qanoat

qilib, bola-chaqasi bilan umr kechirardi. Bahor payti bir

kuni yer haydab turganda bir o'g'ri kelib, uning ter

to'kib ishlayotganiga qarab turdi. Yaqin borib, salom-

lashdi-da, dedi:

— Siz bir kambag'al kishiga o'xshaysiz. Kiyagan

kiyimingiz bundan dalolat berib turibdi. Oyoqyalang

ishlayapsiz, chorig'ingiz ham bo'limasa kerak. Yeri-

ngizdan chiqqan hosil bilan oilangizni ta'minay olmay-

siz. Bunga ishonchim komil. Keling, men bilan birga

o'g'rilik qiling, pulingiz ko'payadi.

Karim uning taklifiga dedi:

— Yo'q, men eng past, yaramas odam bo'lishni

istamayman. Men iflos yo'llar bilan pul topishdan

hazar qilaman. Halol mehnat qilib, pok yashashni

istayman. Ko'rdingizmi, men peshona teri to'kib, shu

halol mehnatim tufayli qalbim rohatlanib, farog'atda

umr kechiraman. Sizning ham o'g'rilik kabi yaramas

ishdan tavba qilishingizni so'rayman. Bu kasbdan or

qiling.

Bayt:

*Berma ozor kishiga, qilma o'g'rilik zinhor,*

*O'g'ri doim chekadir ranju uqubat bisyor.*

### Jasur yigit

Ilk bahor. Tog'lardan erigan qor suvlar pastga shid-

dat bilan oqib tushardi. Nahr ko'prigining o'rtasida

bo'lgan kichkina bir uy ichida ko'priq qorovuli va uning shahardan ko'rgani kelgan xotini, ikkita bolasi suhabatlashib o'tirishardi.

Shu payt har tomondan:

— Qorovul, tezroq bo'l, o'zingni va oolangni halokatdan qutqaz! — degan tovushlar eshitildi. Sel va to'iqinlar ko'priqdan oshib, qorovul uyi atrofini yemira boshladi, ko'priq silkinardi. Qorovul darrov uychasining tomiga chiqib olib:

— Bizga yordam qiling, yordam! — deb qichqirdi.

Bir qari chol:

— Ularning halok bo'lishlariga ozgina vaqt qoldi. Uycha ag'anay deb turibdi, nega qarab turibmiz? Bir jasur yigit bormi axir? — deb faryod qildi. Boshqa qishloqdan kelgan bir yigit qari cholning so'zarini eshitgach, otilib o'rta ga chiqdi.

Jasur yigit Nahr qing'og'idagi kichkina bir qayiqchaga o'tirib, shiddat bilan oqib turgan suvda ko'p mashaqqatlar chekib uychaning yoniga yetib keldi. Avval qorovulning ikki bolasini, qayiqchaga o'tiqizib mashaqqatlar bilan ularni sohilga sog'-salomat yetkazzi. So'ngra yana ko'p mashaqqat tortib, borib qorovul va uning xotinini olib keldi.

Hamma haddan ziyod shodlanib, olijanob, jasur yigitni olqishlab minnadorchilik izhor qildilar. Qari chol va kampirlar ko'zlaridan shodlik yoshlарini to'kdi-  
lar, jasur yigitga tahsinlar o'qidilar.  
O'sha yerdag'i mo'tabar bir odam jasur yigitni mukofotlamoqchi bo'lib:

— Rahmat, olijanob yigit, qilgan odamgarchilging, yaxshi xizmating uchun, mana bu mukofotimni qabul qil, — deb uning qo'liga pul uzatti.

Jasur yigit pulni qabul qilmay:

— Ittifotingga rahmat, men mukofot olish uchun emas, vijdon amri bilan, insoni yuzifamni ado etdim, buni pulga sotmayman. Menga beradigan shu pullaringizni qorovulga bersangiz, men juda ham xur-sand bo'laman, chunki u ro'zg'oridagi hamma

narsalarini boy berdi, yordamga muhtoидir, — deb hamma bilan xayflashib, o'z qishlog'iga jo'nadi. Hamma u yigitga qoyil qoldi.

### Boqiy umr

Aytishlaricha, mo'tabar bir odamning majlisida bir olim, fozil kishini ko'p ta'rif va tavsif qildilar. Mo'tabar odam u olimni ko'rib suhabatidan foydalanishni orzu qilib, uni shu majlisga da'vat qilish uchun o'z qarindoshini yubordi. Olim majlisga kelgach, salom berib hamma bilan ko'rishdi. Keyin mo'tabar odamga ta'zim qilib:

— Majlisningizga da'vat qilganingiz uchun tashakkur etaman, ming yil rohat va farog'atda umr kechiring, — dedi.

Mo'tabar odam olimning so'ziga taajub qilib aytdi:

— Majlisimizda hali o'tirmay turib, mumkin bo'imagan so'zni og'zingizzdan chiqardingiz, bir odamning ming yil umr ko'rishiga aql bovar qiladimi?! Bunday so'zni aytish sizdek olim va fozil kishiga munosibmi-kan?

— Insomning tirikligi faqat jismining boqiyligi bilangina emas. Odam ming yil umr ko'rmasligini hamma biladi. Lekin o'lgandan keyin qolgan yaxshi nom yana bo'lak umdir. Sizning olijanob, marhamatli, shafqatli odam ekanligingizni halq unutmay, nomingizni doimo hurmat bilan yod etib turadi. Vaftinggaidan keyin ham qilgan yaxshiliqningizni xalq unutmaydi, nomingizni ko'nglida abadiy saqlaydi, degan ma'noda "ming yil umr ko'ring", dedim, — deb javob berdi olim.

### Ota-onasiga hurmati

Biz azizi mo'tabar odam bir yigitning ota-onasiga qilgan xizmat-larini eshitib uni ziyorat qilmoqchi bo'ldi. Bu yigit qassob edi. Mo'tabar odam qassobchilik bo-

zoridan u yigitni izlab topdi. U bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rashgandan keyin:

— O'g'ilim, men musofir bir kishiman, agar qabul qilsangiz, bu kechani sizning uyingizza o'kazishni istayman, — dedi. Yigit mo'tabar odamning iltimosini jon-u dili bilan qabul etdi, kechqurun do'konini berkitib, u bilan birga uyiga qaytdi.

Uyning bir chekkasidagi to'shakda qarilikdan juda kichkina bo'lub qolgan bir chol yotardi. Yigit mo'tabar mehmoniga joy ko'rsatib:

— Aziz mehmonim, qani, bemalol o'tirib dam oling, to'shakda yotgan muhtaram chol mening otam bo'ladilar. Onam yaqinda vafot etdilar. Otanga mendan boshqa qaraydig'an kishi yo'q. Har kun aziz otamning xizmatlari ni qilib, keyin ishga ketaman, — dedi. Yigit darhol sho'rva pishirishga kirishdi. Ovqat tayyor bo'lgandan keyin bir kosacha sho'rva olib otasining yoniga keldi. Uning boshi ni sekkingina ko'tarib sho'rva ichirdi. Yigit otasini uxlatib xotirjam bo'lgandan keyin mehmon uchun das-turxon yozdi. O'ziga ham, mehmonga ham sho'rva keltirdi, birgalashib ovqatlandilar. Mo'tabar mehmon:

— O'g'ilim, sen otangni to'ydirib, yuvib-tarab o'mi-ga yotqizgаниндан keyin u og'zini qimirlatib turdi, shu bilan u nima demoqchi edi? — deb so'radi.

— Men har vaqt otamni ovqatlanaman. Agar undan avval keyingina o'zim ovqatlanaman. Agar undan avval ovqatlansam, ota hummatini bajo keltirmagan tarbiyasiz, adabsiz o'g'illardan hisoblanardim. Otam mendan juda roziidirlar. Taomdan keyin og'zilarini qimirlatib shukur etadilar va mening haqimga duo qiladilar. Marhuma onam ham mendan rozi edilar, doimo haqimga duo qilardilar, — dedi yigit.

Mo'tabar odam yigitning so'zlarini eshitgach, ko'zlariga yosh olib:

— Barakkala, o'g'ilim! Sen haqiqiy farzand ekansan. Ota-onu hummatini unutgan farzandlar sendan ibrat olsinlar. Ofarin, o'g'ilim. Ota-onangga qilgan xizmatingning xayli ajrini ko'tasani, — dedi va yigit haqiga

duo qildi. Ertasi kun ertalab yigit bilan xayrlashib o'z yo'liga qaytdi.

Aziz farzandlar. Ota-onangzinu hurmat qilishni aslo esingizdan chiqarmang, kelgisida o'z farzandlaringizdan shunday muomalani ko'rishingiz aniqdir.

### Farzand ota-onasi ziynati

Qadim zamonda bir shahar boshlig'ining xotini shahdag'i mo'tabar odamlarning xotinlarini ziyofatga davlat qildi. Mehmonlar tayin etilgan vaqtida tashrif buyurdilar, o'rindiqa o'tirib, ovqat kelguncha, o'zlarining qimmatbaho kiyimlari, zirak, uzuk, zebigardon kabi taqinchoqlari haqida so'z yuritdilar, juda qimmatli ziyarat asboblariga ega bo'lishlari bilan faxlandilar.

Shu vaqt sodda kiyim kiygan, ziynatlarini taqmagan bir yosh xotin kirib keldi. Bu xotin ziyofat egasining singlisi edi. Salom berib mehmonlar bilan ko'rishdi, keyin bo'sh bir o'rindiqa kelib o'tirdi. Mehmonlar bu xotin ziyofat egasining singlisi ekanligini bilardilar, lekin uning sodda ekani, zeb-ziynat narsalarini taqmagan uchun hayron bo'lub so'rashdi:

— Nega sodda kiyengansiz? Zirak, uzuk, zebigar-donlaringiz yo'qmi?

U xotin:

— Menda sizlarning qimmatbaho buyumlariningizdan ko'ra qimmatiroq zebi-ziynatlar bor, — dedi.

Mehmonlar ko'rishni istagan edilar, u xotin tashqariga chiqib, bir o'g'il, bir qiz, iki yosh bolani yetaklab keldi, ularni mehmonlarga ko'rsatib:

— Mening jonimdan ham qimmatli zeb-ziynatim mana shulardir. Bu do'ndiqlarimni otamning bolalari yoniga qo'yib, sizlarning yoningizga kirkandim. Aytingchi, ota-onu uchun farzanddan ham qimmatli narsaning bo'lishi mumkimi? Sizlarning zeb-ziynat deb o'ylagan narsalarining farzand oldida hech narsa emas. Keling, o'ylagan puch ziyatlariningiza emas, sevimli farzandlaringiz tarbiyasiga ahamiyat bering, sevimli do'ndiqlaringizni odobi, axloqi, g'ayratli, jasoratlari etib

o'stiring, suhbatningiz, fikringiz, zikringiz, mana shuu to'g'rida bo'lsin. Farzand — ota-ona ko'rgi, ziynati, hamma ziynatlarning ziynati, buni esdan chiqar-mang, — dedi.

Bu oqil, dono xotining haqqoniy so'zlaridan mehnor xotinlar ta'sirlanib, sukul etib o'ylab qoldilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2 Т.: «O'zbekiston», 1996.
  2. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, matkum. Т.: «O'zbekiston», 1996.
  3. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3 Т.: «O'zbekiston», 1996.
  4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Т.: «O'zbekiston», 1998.
  5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Т.: «Sharq», 1998.
  6. Karimov I.A. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining paydevori. «Sharq», 1998.
  7. O'zbekiston Respublikasi «Ta'llim to'g'risida»gi Qonuni. Т.: 1997.
  8. O'zbekiston Respublikasi «Kadirlar tayyorlash milliy dasturi». Т.: 1997.
  9. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Т.: G'Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
  10. Vohidov E. Shoiru she'ru shuur. Т.: 1987.
  11. Zulfiya. Kuylariim siza. Т.: Badiyi adabiyot nashriyoti, 1965.
  12. Zulfiya. She'nat. Ikki jiddik. Т.: G'Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
  13. Zannunov A. Xalq pedagogikasi — inson kamolotining asosi. Т.: O'ZPFTT ofset laboratoriya, 1992.
  14. Zannunov A. Pedagogika tarixi. Т.: «Sharq», 2004.
  15. Кукушин В.С. Диалектика. (теория обучения) Учебное пособие. М.: Ростов на Дону. Центр «Март», Т.: 2003.
  16. Mahmudov T. Go'zallik va hayot. Т.: G'Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
  17. Симаров В.А. Диалектика. Учебное пособие. М.: «Академия», 2004.
  18. Хусрасина Н.Б. Интеграция в начальном обучении. Г. Аластовский. 2003.
  19. Чепиков М.Г. Интеграция науки. М.: «Мысль», 1981.
  20. Науки в их взаимосвязи. История. Теория. Практика. Отв. Редактор академик. Б.М. Кедров. М.: «Наука», 1998.
  21. Qayumov A. «Farhod va Shirin» sifari. Т.: G'Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.

## M U N D A R I J A

<i>So'zboshi</i> . . . . .	3
I. Ta'lim jarayonida fanlarni integratsiyalashning ilmiy-pedagogik omillari . . . . .	5
II. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalashtrish . . . . .	12
III. Darsga talab . . . . .	53
Xulosa . . . . .	57
Illova . . . . .	59
Foydalanilgan adabiyotlar . . . . .	77

JO'RAYEV RISBOY  
ZUNNUNOV ASQAR

## TA'LIM JARAYONIDA O'QUV FANLARINI INTEGRATSIVALASHTIRISH OMILLARI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun qo'lllama*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2005

Muharrir *R. Yorlagabov*

Badiy muharrir *A. Muszoxjavev*  
Texnik muharrir *L. Xijova*

Sahifaloechi *T. Ogay*  
Musahihilar *V. Bizatova, N. Oxunjonova*

Bosishga ruxsat etildi 26.10.05. Bichimi 84x108<sup>1/2</sup>. «Taym»  
garniturasi. Ofset bosma. Sharqli bosma tabog'i 4.20+0,42 zarv.  
Nashriyot-hisob tabog'i 5,28+0,45 zarv. Adadi 1000 nusxa  
Buyurtma № 1856. Bahosi kelishilgan narxda

Интеграл ҳуқуқи оқиғаларини беклаб  
та'лимида ҳадиси таъсирни тақдизлаштириш

Муродов Рустам Абдулхакимович

маданият шариятчи  
оқиғаларини беклаб  
та'лимида ҳадиси таъсирни тақдизлаштириш

J 96

**Jo'rayev R., Zunnunov A.**

Та'лим jarayonida o'quv fanlarini integratsiya-lashtirish omillari: O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. — T.: «Shark», 2005. — 80 b.

Mazkur qo'llamma ta'lim sohasida o'quv fanlarini integratsiyalashtirish omillariga bag'ishlangan. Unda ijtimoiy fanlarning uyguligi, ta'lim va tarbiya birligiga e'tibor berib tarix hamda adabiyot bo'yicha asarlarda ifodalangan obrazlar, axloqiy fazilatlarni integratsiyalashtirish bir qator misollar bilan yoritib berilgan. Qo'llamma pedagogika yo'nalishidagi mutaxassislarga mo'ljallangan.